

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI  
JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA USLUBIYOTI KAFEDRASI**

**“Tasdiqlayman”  
Jismoniy madaniyat fakulteti  
dekani: \_\_\_\_\_ p.f.n. B.B.Ma'murov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 yil**

Ixtisoslik: 5112000- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi IV kurs talabasi

**TURSUNOV NARZULLO NOROVICHning**

**YOSH AVLODNI JISMONIY TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB  
HAMKORLIGINING NAZARIY ASOSLARI  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI  
(2014-2018 o'quv yili)**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat etildi.  
“Jismoniy madaniyat nazariyasi  
va uslubiyoti” kafedrası mudiri:  
\_\_\_\_\_ Q.P.Arslonov

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 yil.

Ilmiy rahbar:  
\_\_\_\_\_ Dots. Q.P.Arslonov

Rasmiy opponent:  
\_\_\_\_\_ X.N.Hakimov

**Buxoro-2018 yil**

“Ma’qullayman”

Ilmiy rahbari: \_\_\_\_\_ Dots. Q.P.Arslonov  
uslubiy

«\_\_\_» avgust 2017 y.

“Tasdiqlayman”

Jismoniy madaniyat nazariyasi va  
kafedra mudiri \_\_\_\_\_ Q.P.Arslonov

«\_\_\_» avgust 2017 y.

BuxDU Jismoniy madaniyat fakulteti bitiruvchisi **Tursunov Narzulloning Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining nazariy asoslari** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ustida olib borilishi lozim bo’lgan ishlar yuzasidan

#### TOPSHIRIQLAR JADVALI

<b>T\r</b>	<b>Ishning mazmuni</b>	<b>Bajarilish muddati</b>	<b>Natija</b>
1.	Bitiruv malakaviy mavzuini kafedra va fakultet kengashida tasdiqlanib olish, rejalarini rasmiylashtirish.	Sentyabr	ijro etildi.
2.	Mavzu bo’yicha zaruriy ilmiy-uslubiy materiallarni o’rganish.	Sentyabr, oktyabr, noyabr	ijro etildi.
3.	Jismoniy tarbiya muammolarini o’rganish	Oktyabr, noyabr	ijro etildi.
4.	Mavzu bo’yicha ilmiy manbalarni o’rganish. Adabiyotlar bilan ishlash.	Sentyabr, noyabr	ijro etildi.
5.	To’plangan materiallarni sistemalashtirish	Yanvar	ijro etildi.
6.	Bitiruv malakaviy ishining 1-bobini tayyorlash	Fevral	ijro etildi.
7.	Bitiruv malakaviy ishining 2-bobini tayyorlash va xulosalash	Mart	ijro etildi.
8.	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko’chirish	Mart, aprel	ijro etildi.
9.	Bitiruv malakaviy ishining borishi to’g’risida kafedraga hisobot berish.	May	ijro etildi.
10.	Ishni ilmiy rahbar taqrizi bilan kafedraga topshirish.	May	ijro etildi.
11.	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish.	May	ijro etildi.

Ilmiy rahbar:

Dots. Q.P.Arslonov

Bitiruvchi kurs talabasi:

Tursunov Narzullo

**Buxoro Davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va  
uslubiyoti kafedrasining 1-son yig'ilishi bayonnomasidan**

**KO'ChIRMA**

**Buxoro shahri**

**2017 yil 26 avgust**

Qatnashdilar kafedraning barcha a'zolari va

bitiruvchi kurs talabalari

**KUN TARTIBI**

**2017-2018 o'quv yili uchun mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishlari mavzularini  
tasdig'i.**

Yig'ilishi kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri Q.P.Arslonov qisqacha hisobot berdi va yangi o'quv yili uchun mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ro'yxati tuzilganligini, mavzularning dolzarbligini, takrorlanmaganligini kafedrada tuzilgan maxsus komissiya tekshirib chiqqanligini qayt etildi. Shundan keyin malakaviy bitiruv ishlari ro'yxati yig'ilish kotibi tomonidan o'qib berildi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularini taklifini yig'ilganlar qo'llab quvvatladilar.

Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasining yig'ilishi

**QAROR QILADI**

1. Bitiruvchi kurs talabasi **Tursunov Narzulloning** quyidagi **“Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining nazariy asoslari”** mavzusi bitiruv malakaviy ishi etib tasdiqlansin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi **Tursunov Narzulloning** bitiruv malakaviy ishiga, **dots. Q.P.Arslonov** ilmiy rahbar etib tayinlansin.

**Yigilish raisi:**

**Q.P.Arslonov**

**Yig'ilish kotibi:**

**F.Muzaffarova**

**Buxoro Davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy madaniyat nazariyasi  
va uslubiyoti kafedrasining BMI dastlabki imoyasi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishi  
bayonnomasidan**

**KO'ChIRMA**

**Buxoro shahri**

**2018 yil \_\_ aprel**

Qatnashdilar kafedraning barcha a'zolari va  
bitiruvchi kurs talabalari

**KUN TARTIBI**

**2017-2018 o'quv yili uchun mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishlarini himoyaga  
tavsiya etish.**

Yig'ilishda 4-kurs talabasi **Tursunov Narzulloning dots. Q.P.Arslonov** ilmiy rahbarligida  
bajargan **Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining  
nazariy asoslari** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining tugallanganligi to'g'risidagi axboroti  
va ilmiy rahbar xulosasi tinglandi.

Ish yakunlanganligini hisobga olib, jismoniy madaniyat nazariyasi va usuliyoti kafedrası  
yig'ilishi.

**QAROR QILADI**

1. IV kurs talabasi **Tursunov Narzulloning Dots. Q.P.Arslonov** ilmiy rahbarligida  
bajargan « **Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab  
hamkorligining nazariy asoslari**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi rasmiy himoyaga  
tavsiya etilsin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi **Tursunov Narzulloning** bitiruv malakaviy ishiga **X.N.Hakimov**  
rasmiy hakam etib tayinlansin.

**Yigilish raisi:**

**Q.P.Arslonov.**

**Yigilish kotibi:**

**F.Muzaffarova**

**TURSUNOV NARZULLO NOROVICHning**

**“Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab  
hamkorligining nazariy asoslari”**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

**ILMIY RAHBAR TAQRIZI**

Mavzuning dolzarbligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Belgilangan vazifalarning amalga oshirilganlik darajasi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Bajarilgan ishga talabanning munosabati \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Talabanning adabiyotlardan foydalanish va materialni mustaqil bayon eta olish  
ko'nikmalari \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Talabanning tadqiqotchilik ko'nikmalari \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Talabanning kasbiy tayyorgarlik darajasi , ya'ni pedagogik topshiriqlarni yecha  
olishi, mustaqil qaror qabul qila olishi va h.k \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Olingan natijalarning amaliyotga ta'lim jarayoniga qo'llash imkoniyati hamda  
talabanning ixtisosligi bo'yicha beriladigan kvalifikatstiyani olishga  
loyiqligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:**

**dots. Q.P.Arslonov**

**TURSUNOV NARZULLO NOROVICHning**

**“Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining nazariy asoslari”**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bo'yicha rasmiy opponent  
**TAQRIZI**

Mavzuning dolzarbligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Bajarilgan ishning unda belgilangan vazifalarga mos kelishi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Materialning mantiqiy bayon etilishi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishga oid manbalarning to'la va yetarlicha tanqidiy tahlil etilganligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishning mustaqil bajarilganligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Olib borilgan tajriba ishlari samaradorligining to'la va to'g'ri baholanganligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Xulosalarning to'liq izohlanganligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishning amaliy ahamiyati \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Ishdagi kamchiliklar \_\_\_\_\_

Ishning talab darajasida rasmiylashtirilishiga izoh \_\_\_\_\_

Ishning himoyaga loyiqligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Rasmiy opponent:**

**X.N.Hakimov**

**Buxoro davlat universiteti**

\_\_\_\_\_ fakulteti  
\_\_\_\_\_ ta'lim yo'nalishi

bitiruvchisi \_\_\_\_\_ ning  
(f.i.sh.)

*mavzusidagi bitiruv malakaviy ishga DAKning*

**XULOSASI**

Buxoro davlat universiteti DAK Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi BMIning bajarish haqidagi 31.12.98 yil 362-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nizomga asosan quyidagilarni aniqladi:

1. BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor:tabiiy yo'nalishlar-50dan, ijtimoiy yig'ilishlar-70 betdan kam bo'lmasligi kerak): talabga javob beradi-10 ball talabga qisman javob beradi-7 ball, talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball.
  2. Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi: davlat dasturiga kirgan-8 ball, grant loyihasi bo'yicha-7 ball, Bux DU dasturi bo'yicha-6 ball, dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball.
  - 3 Mavzu dolzarbligining asoslanganligi: yetarli darajada asoslangan-5 ball, etarli darajada asoslanmagan-3 ball, noaniq-2 ball.
  4. Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi: aniq-7 ball, to'liq aniq emas-5 ball, aniq emas-3 ball.
  5. MDI bajarishda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi: to'la-7 ball, qisman-5 ball, yetarli emas-3 ball.
  6. Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi: natija yangi -8 ball, ilgari olingan-6 ball, to'la ishonchli emas-3 ball.
  7. BMIning hulosa qismida ishlab chiqarishga tavsiya bor-6 ball, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish,ma'naviy-ma'riviy...)tavsiya qilingan-5 ball, tavsiya yo`q-3 ball.
  8. Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarni tanqidiy baholanganligi darajasi: aniq-8 ball, to'la anik emas-6 ball, tanqidiy baholanmagan-4 ball.
  9. Ishning ilmiylik harakteri: ilmiy tadqiqodlar asosida-8 ball, aralash shaklidan-5 ball, referativ harakterdan-3 ball.
  10. Bitiruvchining ma'ruzasiga baho: a'lo-10 ball, yaxshi-7 ball, qoniqarli-6 ball.
  12. Berilgan savollarga javoblari: to'liq-8 ball, o'rta-6 ball, qoniqarli 4 ball.
  13. BMIni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi: a'lo-7 ball, yaxshi-6 ball, qoniqarli-5 ball.
  14. BMIGA ko'yilgan yakuniy ball \_\_\_\_\_ Bahosi \_\_\_\_\_
- Eslatma:har bir bal bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi \_\_\_\_\_  
F.I.SH.imzo

A`zolari \_\_\_\_\_  
F.I.SH.imzo

\_\_\_\_\_ F.I.SH.imzo

Sana " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2018 y

# **BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

## **Jismoniy madaniyat fakulteti**

\_\_\_\_\_ning

### **O`zlashtirishi haqida**

### **MA`LUMOTNOMA**

Talaba \_\_\_\_\_

Buxoro Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat fakultetida 2014-2018 yillarda o`qish davomida o`quv rejasini to`liq bajardi va quyidagi o`zlashtirishga erishdi.

"A`LO" \_\_\_\_\_

"YAXSHI" \_\_\_\_\_

"QONIQARLI" \_\_\_\_\_

**Fakultet dekani:**

**p.f.n. B.B. Ma`murov**



**Davlat Attestatsiya Komissiyasiga**

**Buxoro Davlat Universiteti**

**Jismoniy madaniyat fakulteti**

**Talaba \_\_\_\_\_ga**

**“Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab  
hamkorligining nazariy asoslari”**

Mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

Himoyaga bitiruvchining o`zlashtirishi to`g`risida ma`lumotnoma, bitiruv malakaviy ish haqida rahbar hamda kafedra yig`ilishi xulosasi, taqriz va talabaga tavsifnoma ilova qilinadi.

**Fakultet dekani:**

**p.f.n. B.B. Ma`murov**

**Mavzu: Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab  
hamkorligining nazariy asoslari**

**M U N D A R I J A**

<b>Kirish</b> .....	
<b>I-BOB. Yosh avlodni oila, maktab va mahalla hamkorligida jismoniy tarbiyalash yo'llari</b> .....	
1.1. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining nazariy asoslari va tarixi .....	
1.2. Ta'lim-tarbiya jarayonida "Oila, ta'lim muassasalari, mahalla, jamoat kengashlarining" ahamiyati.....	
<b>II-BOB. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining mohiyati, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari</b> .....	
2.1. Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi farzandlarimizning jismonan va ma'nan yetuk bo'lib ulg'ayishida muhim sharti sifatida.....	
2.2. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligida amalga oshirishning yo'llari, texnologiyasi .....	
2.3. Muammo bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili...	
<b>Xulosa</b> .....	
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	

## Kirish

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Barkamol avlod tarbiyasi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolardan hisoblanadi. "Kelajak bugundan boshlanadi". Hozir tarbiya masalasiga e'tibor berilmasa, kelajak boy beriladi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom barkamol naslni tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdir.

Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, his etadi" degan edilar birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

**Oila** – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish kerakki - davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan! Axir oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma'naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi – insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat –ku! Bu – hamma millat, hamma davlat, hamma xalqlar zimmasigagi sharafli vazifa.

Oila dastlab ikki kishidan barpo bo'ladi. Shaffof irmoqlar biri biriga qo'shilib jo'shqin soy, daryolarni tashkil qilgani kabi o'zbeklar uchun katta oilalar urf hisoblanadi. Qo'shgani bilan q'osha qarishni, serfarzand bo'lishni, hamma bolalari yig'ilib kelganda uyi to'ydek bo'lib ketishini, chiroyli qarishni orzu qilmagan o'zbeklar, oila sohiblari topilmasa kerak.

Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblangan. O'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari qadim – qadimdan va hozir boshqa millat kishilarida ham hayrat, ham hurmat uyg'otgan xususiyatdir. O'zbek oilasida ayol, ona ana shu qo'rg'onning posbonlari, oilaning muqaddasligini ta'minlovchi mo'tabar insonlardir.

Qur'oni karimda, hadislarda ayol – onani ulug'lash kerakligi haqida ko'plab ibratli ko'rsatmalar bor. Ularning hammasi ayol – onaning oilada tutgan o'rnidan kelib chiqib aytilgan, albatta. Negaki, dunyoga yangi kelgan farzand uchun oila – ilk tarbiya maskani, shu muqaddas dargohning ma'naviy – axloqiy muhitini yaratuvchi mo'tabar zotdir.

Yuqorida oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati, aytish kerakki – davlat siyosati, dedik. Shuning uchun ham dunyoda necha xalq, necha xil millat, necha xil mamlakat bo'lsa, ularning nashr etgan behisob adabiyotlari ichida oila, oilaviy munosabatlar, oilaning jamiyatda tutgan o'rnini xususida alohida varaqlardan tortib, katta-katta ensiklopediyalargacha, hukumat qarorlari, nizomlardan tortib, kodekslarga uchratish mumkin.

Oilalar muqaddas va buyuk ne'mat hisoblangani uchun ham juda ko'p donishmandlar oilani tuzishni mamlakatni tashkil qilish kabi muhim deb biladilar. Oilaning barqarorligi va baxtli hayoti – shu mamlakatning yuzi, obro'yi deb qaraladi. Taraqqiy etgan davlatlarning o'z mamlakatlarida oilaga bunday katta e'tibor berishi, turli yo'llar bilan uning nufuzini ko'tarishga intilishi also bejiz emas.

Bizda oilalar qurayotganda an'anaviy ko'rsatmalarga amal qilinadi. Asrlar davomida ma'naviyatimiz boyib borayotganiga, oilalarimiz mustahkamligiga bu ko'rsatmalarning insonparvarligi, umrboqiyiligi sabab bo'layotgani ham sir emas. Yaxshi oila xushxulqli, iymonli solih kishilarni, ibratli insonlarni tarbiyalaydi.

Voyaga yetayotgan har bir kishi oila to'g'risidagi yaxshi ko'rsatma, yo'riq, tuzuk, qonun- qoidalarni yaxshi bilishi lozim. Ana shu bilim va istak ularning o'z oilalarini ko'rkam tuzuvlariga, shu kichkina mamlakatlarni to'g'ri boshqaruvlariga yordam beradi. Oilada pihatli umr kechirish – barakotli umr kechirish demakdir.

Bordi-yu oila tuzuk bo'lmasa, tarbiyaga ham e'tibor berilmasa, qancha buyuk bo'lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Buni donishmandlar ko'p ta'kidlashgan: "Millatlar sharafini yuqori martabaga

ko'taradigan narsa millionlar ila sanaladigan askarlar-u, dunyoda eng buyuk va zo'r bo'lgan kemalar emas, balki eng oz e'tibor beradiganimiz yo bo'lmasa, hech bir zamon e'tibor bermasdan qoladiganimiz – oiladir. Oila nizomsiz bo'lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etadi va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o'rniga tubanlik negiz quradi... Agar bir millatga bunday hol ro'baro' kelsa, u millat kitobining so'nggi varag'i ochiladi..."

Darhaqiqat, mamlakatimizda yangilanish jarayoni kechadigan hozirgi davrda ma'naviy boy, axloqiy yetuk, intellektual rivojlangan, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakillantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov va hozirgi davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyevning nutq va risolalarida barkamol shaxsni tarbiyalash eng muhim davlat ahamiyatiga ega masalalardan biri ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Xalqimiz qadim-qadimdan tarbiyaga, ilmu-hunarga alohida e'tibor berib kelgan. Ota-onalik va farzandlik ruhdalari hamisha aziz deb belgilangan. Farzand uchun ota-ona bir umrlik muallimdir. Shuning uchun ham xalqimiz yosh avlod tarbiyasi va taqdiriga mas'ul zotlar-tarbiyachilar, muallimlarni g'oyat qadrlaydi. Ular farzanlarimiz ruhiga xalqimizga xos asl fazilatlarini singdiradilar. Bunday ko'p qirrali tarbiya millatimiz irsiyatiga xos yuksak xususiyatlarning yuzaga kelishi uchun asosiy omildir.

Tarbiya jarayonida ishtirokchilar sa'yi-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla va maktab hamkorligi" Kontseptsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyati muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturiy amal bo'ldi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustahil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va jamoatchilik nufuzi yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohatchidir. Prezidentimiz ta'kidlanganidek, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirishdir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning 3.2. bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar qal etilishida jamiatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu “Oila mahalla va maktab hamkorligi” bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurat ekanligini bildiradi.

“Oila-jamiyatning asosiy bo'g'inidir”. Darhaqiqat, oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg'or vakillari diqqat-e'tiborda bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamolati uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uning biror soniya ham diqqat e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. “Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va qamchiqatlik erishiladi. Binobarin, mahalla, oila, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi”.

Ko'rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirga davr fani tadqiqot yo'nalishlarining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda.

Resublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar Oila, maktab va mahalla, hamkorligi yo'nalishidagi bola tarbiyasidagi oila, ota-ona, mahalla, maktab, javoatchilikning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tadbiiq etishni taqozo etadi.

“Bir bolaga etti qo'shni ota-ona” degan naqldan kelib, Yosh avlodni tarbiyalash va unni jismoniy tarbiyalash jarayonini amalga oshirish borasida kichik vatan bo'lmish mahallaning oldida katta vazifalar turadi.

Mahalla faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan xodimlaridan iborat

muvofiglashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuziladi. Bu jamoatchilik kengashlari mahallalar aqlini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga etaklovchi, bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil etish maqsadida ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga baqishlangan anjuman va tantanalarni uyushtirib borish g'oyat katta e'tiborga egadir.

Afsuski, bunday sanalarni bayram qilish, tadbirlar o'tkazish har doim bo'lavermadi. Bu esa oila, maktab va mahalla hamkorligining zaiflashib borayotganligi, ko'pincha "Sen menga tegma, men senga tegmayman" qabilida yurishlaridan esa ko'pkina yoshlar o'rtasida, oilalarda, har xil muammolar, salbiy holatlarning ro'y berishiga olib kelmoqda. Birgina giyoqvandlik, diniy aqidaparstlik orqali har xil oqimlarning kirib kelishi, ichkilikbozlik holatlarining ko'payishi ham yoshlar tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi, albatta. Bu esa bizning mentalitetimizga yot bo'lgan holatlardir.

**Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston pedagoglari tomonidan barkamol avlodga xos muammolarni o'rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu izlanishlarda bola tarbiyasi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilalaridan milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi salbiy asoratlar, oilada ota va onaning o'rnini va bola tarbiyasidagi mas'uliyati mahalla va jamoatchilikda bolalarning bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o'rganilib, tahlil qilingan. Bu muammo butun dunyo miqiyosida jadal tus olib bormoqda.

Jumladan, chet ellik olimlar Fransiyada A.Vill, E.Dyurkiy, P.Jans, Germaniyada T.Shrayder, Amerikada K.Byuller, Shvetsariyada E.Klanard, Rossiyada A.A.Bodalov, T.Grening, V.Vund va boshqalar bu sohada ish olib borganlar, jumladan ustozimiz M.Ochilov, T.G'offorova, E.Qo'ziyev, U.Yusupov, A.Munavvarov, M.Imomova, R.Saidov, V.Karimova, M.G.Davletshin, G.B.Shoumarov va boshqalar.

Biroq yuqoridagi izlanishlarda yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan.

Aslida mahalla maktab faollari tomonidan oila bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi kerak ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligini ya'ni jismoniy tarbiya sohasida hamkorlikning ilmiy asoslanganligini va barkamol avlod tarbiyasidagi mas'uliyatini chuqur anglab yetishi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli, aynan shu muammo yuzasidan ilmiy tadqiqot ilmini olib borishni taqozo etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Yosh avlodni jismoniy tarbiyasida oila, mahalla va maktab hamkorligi harakatlarining birligi, o'zaro munosabatlarning ijtimoiy, pedagogik, psixologik xususiyatlarini aniqlash, hamkorlikda yosh avlodni jismoniy tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishga qaratilgan jismoniy tarbiyaviy ishlariga tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.** Yosh avlodni jismoniyda oila, mahalla va maktab hamkorligida jismoniy tarbiyalashning pedagogik va psixologik usullaridan foydalanish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligida qo'llaniladigan pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishning imkoniyatlari, yo'llari, shakl va metodlari.

#### **Bitiruv malakaviy ishining vazifalari**

1. Oila, mahalla va maktab hamkorligida yosh avlodni jismoniy tarbiyasiga doir pedagogik, psixologik falsafiy, badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
2. Yosh avlodni jismoniy tarbiyasining usulini ishlab chiqish;
3. Yosh avlodni jismoniy tarbiyasida oila, mahalla va maktabning o'rni va yosh avlodni jismoniy tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.



**Bitiruv malakaviy ishining metodlari.** Nazariy tahlil, mahalla, oila va maktab hamkorligi tajribasini kuzatish, suhbat biografiya, faoliyat natijalarini tahlil qilish, anketa-test, pedagogik eksperiment, statistika metodlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlatimiz rahbarining asarlarida, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da, Oila Kodeksida, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada ilgari surilgan g'oyalar; shaxsning shakllanishi haqidagi dialektik qonuniyatlar; pedagogik hodisalarni tadqiq etishga faoliyatli va tizimli yondashuv tamoyillari tadqiqotimizning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati.** Izlanish davomida o'rganilgan maxsus adabiyotlar tahlil va olingan emperik natijalar asosida ilgari surilgan ilmiy-nazariy g'oyalar, umumlashmalar, ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalar yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda hamkorlik umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, oila pedagogikasi, odobnoma sohalaridagi bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Yosh avlodni jismoniy tarbiyasida oila, mahalla va maktab hamkorligi muammosi nazariy-amaliy jihatdan asoslandi. Yosh avlodni jismoniy tarbiyasida oila, mahalla va maktabning o'rni va Yosh avlodni jismoniy tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Bitiruv malakaviy ishining mazmuni.** Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining pedagogik va psixologik asoslarini metodikasi yoritilgan. Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining mohiyati, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanish tavsiya etilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to'rt bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyolar ro'yxatidan iborat bo'lib, 64 sahifati tashkil topgan.



# **YOSH AVLODNI JISMONIY TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGINING NAZARIY ASOSLARI**

## **1. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining nazariy asoslari va tarixi**

Yosh avlodni tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtdan boshlanadi. Tarbiya yosh avlodni hayotga tayyorlashdan iborat. Jismoniy tarbiya ma'lum bir maqsadni ko'zlab, ongi va rejali tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat. Tarbiya kattalarning, keksa avlodning hayot tajribasini yoshlarga o'rgatishdan iborat. Jismoniy tarbiya o'sib rivojlanayotgan shaxsda ma'lum ijtimoiy-qimmatli fazilatlar, xislatlarni shakillantirish uchun maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sir o'tkazish jarayonidir. Jismoniy tarbiyaviy ta'sirni o'sib-rivojlanayotgan shaxs ijobiy qabul qilsagina, uning rivojlanishi va shakillanishi samarali bo'ladi.

Yosh avlodni hamkorlikda jismoniy tarbiya davomida bolalarning qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topib boradi. U bolalarning xulq-atvori hamda tevarak-atrofdagi muhitning xilma-xil ta'sirlariga uning munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning bu tutgan yo'li qancha aniq va izchil bo'lsa, tevarak atrofdagi hayot sharoitlarining turlicha salbiy ta'siri shuncha kuchsiz bo'ladi.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning roli alohida ta'kidlab shunday degan edi: "Janobi haq insonlarning asl xilqatida iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oh ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqiy buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar Tabib kbidurki, Tabib xamlifaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jaxl markaziga-"yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, amr sharifi uzra

xulqimizni tuzatmoqqa amr qilganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjarasi tarbiyasidir.

Biz tadqiqot olib borayotgan muammoni asoslash va ilmiy echimni aniqroq topish maqsadida oila, mahalla, maktab hamkorligining o'rni va bola Yosh avlodni jismoniy tarbiyasidagi mas'uliyatini oshiruvchi omillar oilashunoslik fanida bir-birini mazmunan boyitadigan, mantiqiy izchillikka ega.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlab o'tganlaridek, "Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oila shakllangan"

Darhaqiqat, sharq buyuk allomalari va ma'rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy Osiyoda yashab kelayotgan xalqlar jumladan o'zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o'zaro munosabatlarning milliy pedagogik asoslari, er va xotinning burch va vazifalari, oilaning burchi va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o'rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, ota-onaning va vazifalari ularning o'zaro munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar, sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining [o'zbek xalq mahollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari] uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy- madaniy meros ekanligini ko'ramiz.

Chunonchi, o'zbek xalqining og'zaki ijodi va eposlarida mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga sadoqat, do'stlik oilaviy turmush qoidalari va oila sha'ni, g'ururini himoya qilish, tug'ilgan joyiga muhabbat, ezgulikka intilish, halol va pok yashash ulug'langan.

Ma'lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan “Qur'on Karim” va hadislarida ham oilaviy turmushning va er-xotin burchlari, vazifalari, oilada bola tarbiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Islomda bo'lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan. Shariat bo'yicha Nikohdan o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo'lgan.

Nikohlanuvchilarning o'zaro roziligi.

Nikoh yoshga to'lish.

Nikohni guvohlar ishtirokida tuzish.

Kelin uchun qalin va maqr to'lash.

Diniy e'tiqod birligi.

Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo'lmasligi.

Tabaqa bo'yicha tenglik.

Nikohdan o'tuvchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi.

Bu shartlarga rioya qilinib tuzilgan Nikohgini qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlari bilan ta'minlangan.

Qur'oni Karim oyatlarida oiladagi er bilan xotinning o'zni belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er avvalo oilaning barcha moliyaviy va ma'naviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo'ladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir.

Qur'oni Karim ta'kidlanishicha, ota-ona bilan muloqotda bo'ladigan farzand besh narsani bilishi kerak.

Muloqot chog'ida u:

-ota-onalar kattiq-qurim gapirib yuborganlarida ham ularga malol kelib “uff” demasliklari;

-ota-onalarni xafa qiladigan so'z gapirmasliklari;

- ota-onalarga doimo ehtirom bilan yaxshi so'zlarni so'zlashlari;

- ota-onalarga doimo rahim-shavqat ko'rsatib o'zlarini ularning oldida kamtar tutishlari;

-Olloddan ota-onalarimizga rahmat tilab duo qilishlari lozim ekanligi uqtiriladi.

Ota-onalar bolalarni dunyoga keltirishga sabab bo'lganliklari uchun emas, balki uni odobli, qayoli, axloqli qilib voyaga etkazganliklari uchun olqishga sazovordirlar.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhisalom: "Kishi o'z bolasiga odobdan ko'ra afzalroq narsa ato etolmaydi"-deydilar.

Hatto ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham Nikoh va oilaviy burch masalasi oilada bola tarbiyasi muhim axloqiy o'rinda turgan. Zardushtiylikda ko'p xotinlik qat'iy man etilgan. Ayni payotda hayotni bo'ydoq o'tkazish ham qoralangan. Balog'atga etgan qiz ota-ona va jamoaning rayini pisand qilmay, qastdan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanishi bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo'lni tutsa unga tamqa bosib badnom qilish maqsadida beliga zanjir boqlab yurishga majbur etilgan. "Avesto"da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanishi uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvvat bo'lishi lozim edi. Bundan tashqari mazkur muqaddas kitobida oila qurish va oilada ota-onaning burch va vazifalari xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud.

Abu Nasr Forobiy [843-950] jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saotadga erishish yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar gapirib "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlaricha chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil odamlar deydilar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning g'oyalarida oilaning to'liqligi ota-onaning oiladagi o'rni va bola tarbiyasidagi mas'uliyatlari hamda oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar

jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlanqich asos iymonlikdir. haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni shahar [bizningcha oila] fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi fazilatli jamoadir".

Forobiy oilada bola ta'lim tarbiya berish usullari haqida shunday yozadi : "Amaliy fazilatlar va amaliy san'atlar kasb-hunar va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda bu odat ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi: birinchi yo'l-qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilqomlantiruvchi so'zlaryordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiradiki, odamdagi g'ayrat, kasb-intilish, harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l-majbur etish yo'lidir. Bu usul gapga ko'nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa saqroy xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki, ular o'z istaklaricha, so'z bilan qayratga kiradiganlarda emasdir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishsa, hamda fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarni va juz'iy san'atlarni egallashga intilishi bo'lsa, bunday odamlarni majbur etmaslik, maqsad ularni egasi qilish va kasb-hunar aqllariga aylantirishdir".

Biz tadqiqotlarimizda o'rganadigan muammo nuqtainazaridan qaraydigan bo'lsak, Forobiyning fikricha oilada bola tarbiyasi, uning jamiyatdagi o'rni, mavqeini qanday bo'lishi oiladagi bog'liq deb o'ylaydi. Bu esa hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda farovon turmush kechirish uchun dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy [973-1048] o'z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtai nazarini ko'pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishicha xarakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar, ota-onaning oilada bola tarbiyasi oldidagi burchi va ma'suliyati hamda ular o'rtasidagi o'zaro

munosabatlariga xosdir. Beruniy oilada bola tarbiyasida rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ulug'laydi, yolqonchilikni odamlar o'rtasiga nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi. Beruniy rostgo'ylikni adolat bilan barobar qo'ydi. Uning fikricha, qalq adolatni sevgani kabi rostgo'ylikni xam sevadi. Ammo uning mohiyatini, yoqimligini bilishni istamaydigan kishi uni sevmaydi. Bolani rostguy va adolatli qilib tarbiyalash kerakligini ta'kidlaydi. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir" [12,174;] "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish bo'lmaydi" [12,20;] "Tenglik hukm surgan joyda sotqin aldamchi ehtiroslar g'am-g'ussa bo'lmaydi" [12,21;]. Oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy O'rta Osiyo, qadimgi yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatimizning o'ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-Nikoh, oiladagi o'zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning "poligamiya" [erkak yoki ayol bir paytning o'zida bittadan ortiq er yoki xotinga ega bo'lishiga yo'l qo'yiladigan nikoh shaklini bildiradi.] Masalan Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni o'rnatish bilan qiziqmaganlar.

Ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida oilaviy turmushning takomillashuvi natijasida o'zgarib boradi.

Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali ibn Sinoning [980-1037] "Donishnoma", "Risolai ishq", "Tib qonunlari", "O'y xujaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq odobi, pedagogika, falsafa va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritir ekan, avvalo oila boshlig'i erning oldidagi mas'uliyatli vazifalariga, qo'ni-qo'shnilarga munosabatlarga e'tiborini qaratadi.

Ibn Sino oilada ayniqsa o'g'il tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Chunki oilada o'g'il ertangi ota-oanning esa oilada bir qator burch va mas'uliyatlari mavjud. Bu mas'uliyatlarning eng oliysi bu oilada bola tarbiyasidir. Oilada bola tarbiyasi katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bolalar aqlli, odobli, mehnatsevar, halol,



imonli, insofli bo'lishidan ota-ona butun bir jamiyat taraqqiyotini insoniyatning yorqin istiqbolini ma'naviy etuk jismoniy sog'lom yoshlargina ta'minlay oladi.

Ibn Sino yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab tarbiyalash masalasida alohida e'tibor beradi. Bola tarbiyasi-bu izchil va asta-sekin amalga oshiriladigan tartibdan iboratdir. Bola balog'atga etguncha, ota-ona o'z vazifasini bajarib borishi kerak.

Ibn Sino jismoniy va aqliy tarbiya haqida.

Ibn Sino "Tib ilmlari qonuni" asarida bola katta bo'lib, etilgan chog'ida jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi. Uning uqtirishicha, odamning yigitlik, etuklik yoshida hamda ulg'aygan yoshida sog'lik-salomatligini saqlash uchun zarur bo'lgan jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanishi kerak.

Ulug' mutafakkir jismoniy tarbiya deb inson salomatligi uchun zarur bo'lgan badanni turli xil mashg'ulot xarakterlariga o'rgatishni nazarda tutadi. Uning fikricha, jismoniy mashg'ulotlar bilan o'z vaqtida va mustahil shug'ullanib boruvchi odam hech qanday davolanishga muhtoj bo'lmaydi. Jismoniy mashg'ulot inson ruhini ham tetiklashtiradi. Ammo jismoniy mashg'ulotlar ortiqcha bo'lmasligi kerak, aks holda badanning tezda charchab holishiga olib keladi. Jismoniy mashg'ulotlarni butunlay tashlab yuborish esa, badanning qarib, tezda ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Har bir inson o'zining xulq-atvori, imkoniyatlari, qobiliyati xoxishiga qarab jismoniy mashg'ulot turini belgilab olish kerak.

Ibn Sino aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, hunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Buyuk faylasuf shoir Bedilning shunday hikmatli fikri bor: "Bino poydevorining birinchi toshi qiyshiq qo'yilsa binoning boshi yulduzga etsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi".

Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” asari [1082-1083] yillarda yozilgan. Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir.

“Qobusnoma” qator ibratli va hayotiy pand nasihatlar bilan birgalikda oilada otaning vazifasi va oila bola tarbiyasiga alohida e'tibor beradi.

Farzand tug'ilganidan avvalo unga yaxshi ot qo'yish, undan so'ng aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, o'qitish, ulg'aya boshlaganda kasb va hunar o'rgatish, qarbiy ish bilan tanishtirish, so'ng undan suvda suzishni o'rgatish kerak deydi. Kaykovus oilaning burchi yana o'z farzandiga odob o'rgatishda deb ta'kidlaydi.

Kaykovus oilaning bola tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e'tibor berish, unga g'amxo'rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: “Agar qizing bo'lsa, uni mastura doyalarga topshirgil, toki yaxshi parvarish qilgaylar va hattiqroq bo'lgandan so'ng muallimga topshirgil..... Balog'atga etgandan so'ng xarajat qilib erga berqil unga shafqat va marhamat ko'rg'uzgil nedinkim qiz oilaning asiri bo'lur” .

Alisher Navoiy[1441-1501] “Mahbub ul qulub”, ya'ni qalblar sevgilisi va “Vakfiya” asarlarida oilaviy turmush bilan bog'liq bo'ladi. Ota-onaning burch va vazifalari ularning o'zaro munosabatlari va bola tarbiyasi haqida qimmatli fikrlar bayon etgan. Masalan, u tarbiya shunday deydi: qobiliyatli tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobut qilmaguncha tarbiyatingni nobut qilma” .

U bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakillantirishga katta ahamiyat berib, bolani uyning “chiroyi”, bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi. Bolalarga yoshligidan bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallim qo'liga berish lozimligini aytdi.

Tarbiyaning biri bolaga yaxshi nom qo'yish bo'lib, nomi bilan chaqirganda u uyalmaydigan bo'lishi lozim. Tarbiyaning yana biri unga ilmu adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. It etuk ta'lim olgan sababli u tishlab kelgan ov halol hisoblanadi. Yuvgan bilan toza bo'lmaydigan it olim bo'lgan ekan, o'g'ling

bilimsizligicha holib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir. Lekin buning ortiqchasi zarar.

Voqea bo'ladigan balalardan uni o'z mehring bilan asrashing bolang oldida sendagi tavoze'ni bildiradi.

Tarbiyaning yana biri ota onani hurmat qilish; buni bajarish uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qilgin. Xizmating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyoing obod bo'lishini istasang, shu ikki insonni roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turganingning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam bosma hamma xizmatni sen odob bilan bajar, odob so'zidan" "dol" kabi qomatingni ham qil.

Alisher Navoiy bolaning voyaga etkazishda kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi.

Tarbiya natijasida bolaning foydali va etuk kishi bo'lib etishiga ishonadi. Alesher Navoiyning fikricha oilada tarbiyaning maqsadi yosh avlodni xalqparvar, bilimli eng yaxshi fazilatlarga boy, ega kishi qilib etishtirishdir. Navoiy oilada injiq yalqov yomon xulqli bolalarni ham tarbiya va o'qitish yo'li bilan tuzatish mumkinligiga ishonch bildiradi.

Navoiyning fikricha bola odobi insonning oliyjanob fazilatlaridan biridir. Odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli bo'ladi. Bunday kishilar uchun ikkiyuzlamachilik, qo'pollik yotdir. Odobli bola doimo hurmat va izzatda bo'ladi. Ota-ona, aka-uka, opa-singlini, do'stlarini hurmat izzat qilmog'-har bir odobli bolaning burchidir deb ta'kidlaydi.

Alisher Navoiyning fikrlarini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'sha zamonlarda ham oilada bola tarbiyasi muhim mavzu sifatida tadqiq qilingan. hozirgi davrda ham bu dolzarb mavzudir.

XX asr Turkiston jadidchiligining o'lkan namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat "Oila" nomli asarida, oilada bola tarbiyasida tartib intizomga qattiq rioya qilish lozimligi haqida gapirib: U "Millatning taqdiri mana shu millat vakillari

yashagan oilaning holatiga bog'liqdir, qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi" deb yozadi. U yana bolani "yomon niyat va qo'pollik bilan emas balki sabr-toqat, mehribonlik, shavqatu sezgirlik bilan bo'lishi kerak. Bundan esa bolani tizginsiz hayvon kabi o'z holiga qo'yish lozim degan gap emas zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go'dakni nazoratsiz tutish ulug' xatolikdir" [28;].

Shveysariyalik olim I.G. Pestolotstsining fikricha. Jismoniy va mehnat tarbiyasi haqida. Jismoniy tarbiyaning maqsadi bolaning tabiiy jismoniy iste'dodni rivojlantirishdan, unda ko'nikma va malakalar hosil qilishdan va shu yo'l bilan uning jismoniy kuch-qudratini o'stirishdan iboratdir. Pestolotstsi bu maqsad amalga oshirilsa, jismoniy tarbiya insonning shaxs sifatida shakllanishiga, aql-idroki, axloqiy qis-tuyg'ulari va irodasining rivoj topishiga ishonadi.

Pestolotstsi bolaning harakat qilishga tabiiy intilishi, bu – ularni jismoniy tarbiyalash asosi ekanligini ta'kidladi. U jismoniy tarbiyani mehnat tarbiyasi bilan uzviy birgalikda amalga oshirishni tavsiya etdi. Buning ahamiyatini Pestolotstsi faqat bolaning jismoniy emas, balki axloqiy rivojlanishida ham ko'rdi. U bolaning qo'lidan keladigan ishlarni ko'rdi. U bolaning qo'lidan keladigan ishlarni bajarilishi ularni insoniy qadr-qimmat, mehnatsevarlik, qat'iylik, vijdoniy poklik kabi fazilatlarni rivojlanishida asosiy bo'lishiga e'tibor berishni talab etdi.

## **1.2. Ta'lim-tarbiya jarayonida "Oila, ta'lim muassasalari, mahalla, jamoat kengashlarining" ahamiyati**

Tarbiyaning predmeti shaxs sifatida unga e'tibor qaratish darkor. Jamiyatning, tarbiyaning maqsadi bir holatga qaratilgan, u ham bo'lsa "sog'lom yetuk barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat". Ayni vaqtda ushbu maqsad ham dolzarb masalalardan biridir. Inson shaxsining shakllanishiga ta'sir etadigan omillar quyidagilardan iboratdir. :

1. Irsiy, nasliy.
2. Ijtimoiy muhit.
3. Pedagogik faoliyat.
4. Mustaqil faoliyat.

Dastlab inson tug'ilganda 1- navbatda tarbiyani oiladan oladi. Sekin -asta atrof

muhitga moslashadi. Darhaqiqat oila yetakchi o' rinda turadi. Oila ulug' bir maskan kichik bir davlatdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 63-moddasida quyidagilar e'tirof etilgan: "Oila-jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Davlat va jamiyat muhofazasida bo'lish huquqiga egadir". 64-moddada esa: "Har bir ota-ona farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqishga va g'amho'rlik qilishga majburdirlar". Har bir ota-ona o'z farzandining ta'lim-tarbiyasi uchun mas'uldir. Ota-onalar o'z farzandlariga go'daklik chog'idanoq ijobiy fazilatlarni yaxshi ko'nikmalarni singdirib borishi muhim. Shuningdek, farzandlarining komil inson bo'lib tarbiyalanishlari uchun o'z hissalarini qo'shadilar. Kelgusida ana shu farzandlar jamiyat uchun foydasi tegadigan fidoiy, vatanparvar shaxs bo'ladilar.

Pedagogika ya'ni ta'lim-tarbiya fani mamlakatimizda qo'lga kiritilgan mustaqillikni mustahkamlash, O'zbekistonning iymonli-e'tiqodli, ongli, fidokor farzandlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Pedagogik mahorat va ta'limni tubdan isloh qilish sharoitida pedagogika fanining vazifalari ta'lim tizimida innovatsion usul, shakl va vositalardan oqilona foydalanish ta'lim samardorligini ta'minlash, ijodiy intilishlarni kuchaytirish, mustaqil tarbiyalanish, ma'naviy-axloqiy rivojlanishga turtki berish dolzarb ahamiyatga molikdir.

**Hamkorlik pedagogikasining yuzaga kelishi.** Hamkorlik pedagogikasi pedagogik jarayonni takomillashtirish, va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslanadi. Hamkorlik pedagogikasi ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu ta'lim-tarbiya beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotga asoslangan shaklida ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim.

Hamkorlik pedagogikasi - 1980 yillarda ta'limda innovatsion jarayon sifatida yuzaga kelgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida hamkorlik pedagogikasi quyidagilardan iborat:

**Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari:** hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qilish, yaratish, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Hamkorlikda o'qitish darslarini tashkil qilishda, o'qituvchi – gurux, o'qituvchi -

o'quvchi–o'quvchi, (fikrlashda ishlash), kichik guruh va sinf kabi tashkiliy shakllari qo'llanadi. Hamkorlikda o'qitish – bu o'qituvchining ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka, butun guruh bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilish bilan birga, hamkorlikni amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi, o'zlariga va o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi.

**Pedagogik hamkorlikning mohiyati.** Hamkorlik – shunday bir holatki, ob'yekt va sub'yekt birgalashib faoliyat olib boradi, o'rtoqlik, o'zaro yordam, jamoatchilik yuzaga keladi.

Hamkorlik pedagogikasining asosi quyidagilardan iborat:

- O'quvchi shaxsini chuqurroq bilish.
- O'quvchi shaxsiga insoniy yondoshish.
- Jamoatchilik tarbiyasi.
- O'quvchining yuqori kasbiy salohiyati.
- Maktabga jamoa diqqat – e'tiborini qaratish.

Hamkorlik pedagogikasi – ilg'or pedagogikaning ko'rinishlaridan deb qarash mumkin. Uning ichiga yangi pedagogik tafakkur, rivojlantiruvchi g'oyalar kiradi.

Hamkorlik pedagogikasining kontseptsiyasi:

- O'quvchi bilan hamkorlik munosabati.

O'quvchiga ijobiy emotsional (hissiy) qoniqish hosil qilish.

- Maktab tarbiyasining muvaffaqiyatini amalga oshirish.
- Muloqot va mehnat qilish ko'nikma va malakasini hosil qilish.
- O'quvchilar bilan birgalikda mehnat qilish va yutuqqa erishishga ishontirish.

➤ O'quvchiga yordam berish g'oyasi. Har bir o'quvchi sinf ishida bemalol erkin qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

- O'quvchilar ishini baholash ya'ni rag'batlantirish.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi hamkorlik pedagogikasi bu o'quv mashg'ulotda o'qituvchi -o'quvchi hamkorligidir. Pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ular quyidagilardan iborat:

O'quvchilarning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

O'quvchilarning ta'lim- tarbiya jarayonida darsga qiziqishlarini doimiylikni ta'minlanishi;

O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirilishi;

pedagog va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari muhimdir.

Ta'lim-tarbiyani modernizatsiyalashtirish ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. O'quvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq jarayonlari ta'limning shaxsga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi ta'lim-tarbiya tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta'lim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlari (erkinlikka intiluvchanlik, mustaqillik, shaxsiy fikrlarning mutloq o'ziga xos tizimga ega bo'lishi, o'z-o'zini tasdiqlash ehtiyojining mavjudligi va boshqalar)ni hisobga olgan holda, o'quvchiga uning o'ziga xosligi (individualligi)ni rivojlantirish, namoyon etishi uchun sharoit yaratish lozim. Zero, har qanday o'quvchi o'ziga va faqat o'zigagina xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish va namoyish etishga intiladi.

Ta'lim –tarbiyada o'quvchi shaxsga faoliyatli yondashuv bu tizimning kontsepsiyasini tashkil etib, bunda shaxs “sub’ekti” kategoriyasi erkinlikka intilish, o'z-o'zini rivojlantirish, yaxlitlik, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish va faollashtirish xususiyatlari asosida anglashiladi, o'quv jarayoni hamda uning tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod, shakl, usul, vositalar o'quvchi uchun shaxsan ahamiyatga ega bo'lgan, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatida tatbiq etiladi. Tarbiya asosida shaxsning rivojlanishi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarini

o'zlashtirishi faqat uning shaxsiy faoliyati natijasida amalga oshadi. Agar o'quvchi o'quv-tarbiya faoliyati mohiyatini anglay olmasa, o'qituvchi qo'ygan vazifalarni tushunmaydi va qabul qilmaydi. Bilim ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan faoliyat natijasidagina shakllanadi. Inson ongi hamisha sub'ektiv mohiyatga egadir. O'qituvchi muayyan bilimlarga nisbatan befarq bo'lmay, bilimlar uning uchun shaxsiy mazmunga ega bo'lsagina puxta o'zlashtiriladi. O'qituvchi bunga o'quvchida o'quv, mashg'ulotga nisbatan qadriyatli, ijobiy sub'ektiv munosabatni tarkib toptirish natijasida erishadi.

O'quvchining o'zlashtirilayotgan bilimlari o'quvchiga shaxsan qiziqarli va kerakli bo'lishi zarur. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar sub'ektivlashadi, o'ziga xos individual jihatlarga ega bo'ladi. Shaxsiy, tafakkur fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi, bu esa o'quv jarayonini noan'anaviy usulda tashkil etishning muhim shakllari (bahs-munozara, o'zaro hamkorlik) ni talab etadi. Shunday qilib, faoliyat shaxs rivojlanishining asosiy substantsiyasi hisoblanadi. Shaxs faoliyati uning ichki hissiyotlari bilan bog'liq. SHaxsiy motiv, hissiyot va shaxsiy fikr vositasida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi o'z mashg'ulotida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullardan foydalanishi muhim. O'quv-tarbiya material mazmuni avval o'quvchi tomonidan ijodiy qayta ishlanadi va o'quvchini qiziqtiradigan, uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan, uni fikrlashga undaydigan jihatlar belgilanadi.

Ushbu holatda o'quv vaziyatlari shaxs uchun ahamiyatli vaziyatga, o'quv axborotlari o'quvchi uchun muhim hodisaga aylanadi. O'quvchi o'zini ushbu hodisaning ijodkori deb hisoblay boshlaydi.

“Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat

, yo saodat – yo falokat, masalasidir”, deganida A. Avloniy tarbiya oilada, maktabda, mahallada, jamoatchilikda ham, o'qituvchi, o'quvchi o'rtasidagi munosabatda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonni dunyoga kelishi, faqat tug'ilishdan iborat tabiiy – biologik hodisa emas, balki tug'ilishdan keyin o'z



zamonasining taraqqiyot darajasiga ko'rsatilishi, mavjud ijtimoiy - tarixiy tajribani egallash, jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, e'tiqodiga, o'zligiga, hayotda o'z o'rniga, mavqe'iga ega bo'lishi va buning uchun tarbiya, ta'lim olishi kerak bo'ladi.

O'zbekistonda demokratik va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalariga muhtaram birinchi prezidentimiz alohida e'tibor beradilar: "Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq", -deyishlarida katta ma'no bor. Pedagogik mahorat va ta'limni tubdan isloh qilish sharoitida pedagogika fanining vazifalari ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini, demokratik jamiyatda yashovchi shaxsning muammolarini, korreksion tuzatish pedagogikasining usullari va talablarini mahalla, oila, maktab, hamkorligini ta'minlash, ilg'or axborot, pedagogik uslubiy shart-sharoitlarni ishlab chiqishni talab etadi.

**Hamkorlikda o'qitish metodlari.** Hamkorlik pedagogikasi – o'quvchilar ta'lim-tarbiyasini samarali yo'lga qo'yishda oila, maktab, mahalla, jamoatchilik pedagogik ta'sirini umumiy, mushtarak maqsadga, talablar birligiga keltirishda hamkorlikni yo'lga qo'yishning tamoyillari, shakllarini asoslaydi. Uning asosiy tamoyillari:

- O'quvchiga ta'sir etuvchi tomonlarning maqsadi mushtarakligi;
- o'quvchiga qo'yiladigan talablar birligi;
- hamkorlikdagi tomonlarning teng manfaatdorligi;
- hamkorlikni amalga oshiruvchi asosiy tomon maktab, o'qituvchi bo'lishi.

**Hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi 5 ta xususiyatga ega:**

1. O'quvchilar birgalikda umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruh ishi orqali yaxshi o'zlashtiriladi.

2. O'quvchilar 2-5 a'zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3.O'quvchilarning umumiy vazifalar yechimini birga topish imkoniyati yaratiladi. Yoki o'rganilish faoliyatini amalga oshirish, amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq – atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4.O'quvchilar ijodiy va mustaqil bo'lishadi.Shuningdek o'quvchilarning bir – birlariga ko'maklashishadi.

5.O'quvchilar bir-birlaridan o'zishlari natijasiga,o'rganishga,ta'lim- tarbiya olishga,shaxsan mas'uliyatli va javobgar bo'ladilar.

Hamkorlikda o'qitish, o'rgatish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

➤ O'quvchining o'zlashtirish jarayonini boyitadi.

O'quvchilarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv, axborotlar to'plamini beradi.

➤ O'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi.

➤ O'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

➤ Axborotlarni ikki tomonlama almashtirish samaradorligini oshiradi.

O'quvchilarning mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi.


Turli xil madaniyat - iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy munosabatlarni oldinga suradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida hamkorlik pedagogikasi.Oila,maktab, mahalla jamoatchilik hamkorligi.

Dunyo salohiyatiga ega bo'lgan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalariga asoslanib, pedagogikada "Bunyodkorlik" ta'limi kontseptsiyasi vujudga keldi. Bunda iste'dodlilardan samarali foydalanish kasbiy-aqliy, ma'naviy barkamollashish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, axborotlarni egallab olish va amalda qo'llashning samarali usul va metodlarini o'rgatishni talab qiladi.

Bugungi kunda barkamol shaxsni shakllantirish mahoratli pedagogning jahon standartlariga teng keladigan kadr qilib yetishtirish, yosh avlodni tarbiyalash, hamkorlikni kengaytirish, motevatsion jarayonni ta'lim-tarbiya tizimiga to'g'ridan-

to'g'ri olib kelish, maqsad, vazifa usul va natijalarni kelishib olish, hozirda ko'p omillik muhim vazifadir.



Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish ko'p omilli, ko'p qirrali ijtimoiy - pedagogik jarayon bo'lib, maktab, mahalla, o'quv yurtlari, oila va ishlab chiqarish jamoalari ishtirok etadi. Tarbiyaviy omillarning ta'siri moslashtirish, boshqarish va ularning umumiy maqsad va vazifalarini hal etishga, yo'naltirish pedagogik jamoalarining muhim vazifasi hisoblanadi. Pedagogik hamkorlik ota-ona va o'quvchilarni birgalikda, hamkorlikda hal etadigan muammolarini aniq bilishlari talab etiladi. Maktab, va oila hamkorligining muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya ishlari, maqsad va vazifalarini hal qilish. Bularga:

- fan asoslarini chuqur va puxta egallab olish.
- shaxsni jismonan baquvvat, yuksak ma'naviy sifat va nafosat didlarini o'stirish.
- Ijodiy qobiliyat va iste'dodni o'stirish.
- Mehnatsevarlik, ishlab chiqarish, kasbga qiziqishlarini tarbiyalash.

Maktab,oila hamkorligining muhim tomoni farzandlarning o'z shaxsiy sifatlarini tarkib toptirishga qaratilgan ishlardir. Tajriba shuni ko'rsatadiki,qaysi oilada o'zaro hurmat, ishonch vaziyatlari hukmron bo'lsa, o'sha oilada farzandlar tarbiyasi bo'lib o'sadilar. Ota-onaning bilimdonligi, talabchanligi yuksak madaniyatligi farzandlar tarbiyasida ijobiy iz qoldiradi.Shuning uchun oilada farzandlarni tarbiyalashda quyidagi shart-sharoitlarga rioya qilish talab etiladi:

– oila hayotida ota-onaning o'z o'rnini va o'z vazifalarini sidqidildan bajarilishi;

– o'zaro ishonch, samimiylilik, xalollik munosabatlari hukmronlik qilishi; oila hayotida o'zaro talabchanlik bolaga xurmat;

– ota-ona farzand tarbiyasiga o'z ishi deb emas,balki jamiyat oldidagi fuqarolik burchi deb qarashi;

– oilada mehnat qilish va mehnatsevarlik qadrlanishi kerak.

– ota-ona farzandlari faoliyati ustidan oqilona nazoratda bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, oilaning quyidagi vazifalari bor. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"da ota-onaning burchi, huquqlari va majburiyatlari belgilab berilgan;

- bolani soglom o'stirish, kiyintirish, ovqatlantirish;

- bilim olish va muassasaga muntazam qatnashishini ta'minlash;

- vaqtida dam olish, mehnat qilish, o'ynash faoliyatini tashkillash.

Maktabning vazifalari:

- o'quvchi yoshlarga puxta bilim berish;

- jamiyat ko'zida tutgan sifatlarda tarbiyalashni ta'minlash;

- o'zining o'quv-tarbiyaviy vazifalaridan oilani xabardor qilib turish;

Yuqoridagilardan tashqari ota-onalar bilan tashkiliy ishlari mavjud bo'lib, bular:

1. Ota-onalar yig'ilishlari va anjumanlari; Bunda juda ko'p muammolar yechiladi. "Bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash" "Bolalar tarbiyasida ota-onaning obro'si", "Bolani oilada jismoniy va aqliy jihatdan tarbiyalash yo'llari".

2. Ota-onalar kengashlari.
3. Ota-onalarning pedagogik savodxonlagini oshirish.
4. Ayrim ota-onalar bilan ishlash.
5. Ota-onalarni maktab ishlariga jalb etish.

**Mahallaning vazifalari:**

1. Oila bilan muntazam aloqada bo'lish.
2. Mahallada yashaydigan fukarolarning moddiy sharoitlarini o'r-ganib chiqish, moddiy yordamlar uyushtirish.
3. Bayramlarni tashkilotlar bilan birga uyushtirish.
4. Namunaviy oilalarni, nosoglom oilalarni, jinoyatga mayilli bolalari bor oilalarni hisobga olish va ular bilan ishlash.
6. Qariya va qarovsiz bolalarga g'amxurlik qilish.
7. Mahalla aholisini dam olishi uchun turli maskanlar qurish.

**Jamoat tashkilotlari va ishlab chiqarish korxonalarining vazifalari:**

1. Maktab va oilalarga g'amxo'rlik qilish.
2. Yig'ilishlarga o'z vakillarini junatib turish.
3. O'z qo'l ostidagi ishchilarni bolalari hayotidan xabardor bo'lish

O'zbekiston Respublikasining siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy mustaqilligi maktab va o'quv yurtlarida bolalar va o'quvchi-yoshlar uyushmalari faoliyatiga har tomonlama ta'sir etadi. Endilikda "O'zbekiston Yoshlar ittifoqi" vujudga keldi. O'z faoliyatini yangi tamoyillar mazmuni asosida qurdi. Bolalar va o'quvchi-yoshlarni ommaviy uyushmalari ixtiyoriy demokratik tamoyillari asosida tashkil etilgan bo'lib, asosiy maqsadi - bolalar, o'smirlar va o'quvchi-yoshlar ijtimoiy erkinliklarini xukuklarini himoya qilish, ijtimoiy rivojlanishdagi extiyojlarini qondirish orqali O'zbekiston kelajagi bo'lgan aql-zakovatli, bilimdon, iymonli, mehnatsevar komil insonlarni yetishtirish.

1. Jismoniy tarbiya sohasida:

-Ertalabki gimnastikani uyushtirish;-Sport musobaqalariga jalb etish;

Maktabda har bir dars alohida o'qitiladi. O'quvchilarning faoliyatini boshqarish va umumlashtirish lozim. "Qabul qiluvchidan", amalda qo'llovchiga aylantirish mahoratli pedagogning burchidir.

O'quvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

1. Darslarda ishlayotgan o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarni tarbiyalash.

2. Guruh jamoasining jipslashtirish.

3.O'quvchilarni bilishga qiziqish va qobiliyatini o'stirish.

4. O'quvchi salomatligini himoya qilish.

Hamkorlik pedagogikasining mohiyati shundan iboratki, tomonlar ya'ni,"Oila,ta'lim muassasalari,mahalla jamoat tashkilotlari"ning teng mushtarakligi hamda jips holatda harakat etishi.Maqsad,vazifalari bir holatga qaratilgan.

Barkamol shaxs tarbiyasi uyg'unligi quyidagilarda namoyon bo'ladi .

Ta'limning turlari –

Uzluksiz ta'lim: 1.Maktabgacha ta'lim. 2. Umumiy o'rta ta'lim(maktab: boshlang'ich va umumiy ta'lim). 3. O'rta maxsus ta'lim (litsey, kollej). 4. Oliy ta'lim (universitet, institut): Bakalavriat-4 yil. -Magistratura - 2 yil. -Doktorantura - 3 yil. 5. Kadrlar malakasini oshirish institutlari.

Tarbiya jarayonida - Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi. 1.Oila. 2.Ta'lim muassasalari. 3.Mahalla. 4. Jamoat tashkilotlari. Jismoniy tarbiya -"Barkamol avlod", "Umid nihollari". "Universiada".

Barkamol avlodni shakllantirishning muhim shartlari.

-Yosh avlodga o'zligimiz,muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini xalqimizning ko'p asrlik davomida shakllangan ezgu fazilatlarini, jamiyat oldida turgan oliy maqsad va vazifalarini singdirish.-Mavjud bo'lgan hurfikrlilikka tayangan holda yoshlarning xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan,el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash.-Yoshlarni O'zbekistonga munosib voris

bo'la oladigan baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash.-Yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari ayni vaqtda jahon, zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash.

**”Oila-mahalla-ta’lim mussasasi” hamkorligini kuchaytirishning ustuvor vazifalari:**

Ota-onalar va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim mussasalari bilan hamkorlikda olib boradigan faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish; Farzand tarbiyasida davlat va jamoat tashkilotlari hamda jamoatchilik faolligini oshirish; Xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish; Milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanish. Oila, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari (keyingi o'rinlarda ta'lim muassasalar deb ataladi) va mahalla hamkorligining samaradorligi va natijadorligini ta'minlash; Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini yanada kuchaytirishga doir uslubiy asoslarni yaratishni tashkil etish;

Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish; Ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni tizimli amalga oshirish;

**”Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligini amalga oshirish tamoyillari:**

Ta'lim –tarbiya jarayonida so'z va ish birligi; Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi; Hamkorlik jarayoni sub'yektlarining teng huquqliligini va yuksak mas'uliyatliligi va yuksak mas'uliyatliligi; Faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi; Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi; hamkorlik ishlarining ilmiyligi.

**”Oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi Jamoat kengashi a'zolarining huquq va vakolatlari”.**

Jamoat kengashi faoliyati doirasida davlat va nodavlat tashkilotlardan zarur ma'lumotlarni talab etadi va taklif etadi. Mahalla, ta'lim muassasalari va tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar va yig'ilishlarda ishtirok etadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ta'lim muassasalari qoshidagi "Ota-onalar universitetlari" va umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshidagi "Oila, mahalla, maktab" hamkorlik markazlari faoliyatini o'rganadi; Hamkorlik ishlarini kuchaytirish yuzasidan takliflar beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida erishgan yutuqlaridan kelib chiqib, o'quvchilar, ota-onalar va sinf rahbarlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha maktab, mahalla va tashkilotlar boshqaruviga tavsiyalar kiritadi. O'qituvchi, o'quvchi va ota-onalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ishtirok etadi. **"Ota-onalar universiteti"** quyidagi yo'nlishlarda ish olib boradi: Ijtimoiy-iqtisodiy; Pedagogik-psixologik; Ma'naviy –ma'rifiy; Huquqiy.

### **"Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashining boshqaruv faoliyati.**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla, ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi hududiy kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Jamoat kengashi faoliyatini yillik reja asosida o'quvchi yoshlar, ota-onalar va keng jamoatchilik ishtirokida yuritadi.

Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish usullari.

O'tkaziladigan tadbirlarni har tomonlama puxta, ko'rgazmali, ommabop, qisqa va lo'nda, jozibali tashkil etish. Hamkorlikda olib boriladigan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va turli toifalardagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos holda tashkil etish.

### **"Oila, mahalla, ta'lim muassasasi" hamkorligini mustahkamlashda Oilaning vazifalari.**

Oilada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, farzandlarda ota-onaga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish; -Farzandlarga chuqur dunyoviy bilim berish; bolalarning qiziqishi, iqtidori va ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish; Bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va Vatanga



sadoqat ruhida tarbiyalash; bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish; Bolada tejamkorlik va ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirish; Ota-onani farzandining barcha xatti-harakatlari uchun javobgarligini oshirish; Bolalarga sanitariya-gigiyenik, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish; Oilada ota-onalarning bilim darajasini oshirishga erishish. Farzandini oilaviy hayotga tarbiyalashda ma'naviy meros, axloq, odob, urf-odat va an'analarni singdirib borish; Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-hunar egallashlari uchun shart-sharoit yaratish; Oilada bir-birlarini doimiy ravishda o'zaro qo'llab-quvvatlash, oilaviy dam olishni to'g'ri tashkillash; Oilada turli muammoli vaziyatlarni oqilona hal etishda yoshlarni muloqot madaniyatiga o'rgatish; Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash; radio to'lqinlari, televideniya berilayotgan kuy va qo'shiqlar, internet, telefonlardan olinayotgan ma'lumot va tasvirlar ota-onalar tomonidan saralanib, bolalarga taqdim etilishi; Oilada bolaning maktabdan tashqari turli xil ta'lim muassasalaridagi (musiqqa va sana't, sport maktablari, "Barkamol avlod" bolalar markazlari, mahallalar qoshidagi turli to'garaklar markazlari) to'garak mashg'ulotlariga jalb etish.

### **"Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligini mustahkamlashda ta'lim muassasasining vazifalari.**

Ta'lim muassasalarida "Ichki tartib qoidalar" va "Odob-axloq qoidalar" talablariga to'liq rioya etilishiga erishish; Ta'lim muassasalari negizida "Ota-onalar universitetlari" tashkil qilish va mashg'ulotlarni zamonaviy shakl va usullarda olib borish. Xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan unumli foydalanish bo'yicha shart-sharoit yaratish; huquqiy tarbiyani doimiy reja asosida amalga oshirish; Tarbiya jarayoning barcha ishtirokchilari orasida yot g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni davom ettirish; Yosh avlod ongi va shuuriga ta'sir etish uchun bo'layotgan ma'naviy tahdidlarga nisbatan muntazam tarbiya va tegishli mashg'ulotlar yordamida mafkuraviy immunitet hosil qilish hamda bu faoliyatni uzluksiz olib borish; O'quvchi-yoshlarda kitobxonlik, mutolaa madaniyati, badiiy adabiyotga

muhabbatni shakllantirib borish; O'quvchilarni jamoat ishlarida faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish; Bola tarbiyasi namunali yo'lga qo'yilgan oilalar tajribasini ota-onalar majlislarida ommalashtirish.

### **Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini mustahkamlashda Mahallaning vazifalari.**

Farzandlari tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, lozim hollarda profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida mahalla faollarini biriktirish. Mahalla hududidagi notinch oilalarni aniqlash va ularda sodir etilishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarning oldini olish; Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishilgan yutuqlar targ'ibotini tashkillash. Ta'lim muassasalari tavsiyasiga ko'ra, iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

Farzandlariga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalarni rag'batlantirish. (Minnatdorchilik xati yoki e'lon qilish) ularning hayot tajribasini ommalashtirish;

Barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ishini amalga oshirish tamoyillari: Samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanish; Mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllanishi, o'quvchidagi barcha salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga, hayotda o'z o'rnini topishiga, shu orqali jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun muhim omil ekanligini anglatish. Barkamollikka erishishning muhim sharti-jahon umumbashariy yutuqlarini egallash zarurligini singdirish. Yoshlarni xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizning eng yuksak maqsadlari yo'lida fidokor bo'lishni tarbiyalash; Yoshlarni O'zbekistonga ulug, ajdodlarimizga munosib vorislar bo'la oladigan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; Chuqur bilimlarga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan ongli, tafakkuri tiniq, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga kamarbasta komil

insonlarni tarbiyalashga barcha mas'ulligini jamoatchilik orasida muntazam targ'ib etib borish.

**”Oila,mahalla, ta’lim muassasalari” hamkorligini kuchaytirishning ustuvor vazifalari.**

Oila ya’ni ota-onalar va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda olib boradigan faoliyatini tizimli yo’lga qo’yish.Farzand tarbiyasida davlat va jamoat tashkilotlari hamda jamoatchilik faolligini oshirish.Xalqimizning boy miliy, madaniy, tarixiy an’analari, urf odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish.

**”Oila, mahalla va ta’lim muassasalari” hamkorligini amalga oshirish tamoyillari. Hamkorlik tamoyillari quyidagilarda namoyon bo’ladi:**

-Ta’lim-tarbiya jarayonida so’z va ish birligi.-Hamkorlik jarayoni sub’yektlarining teng huquqliligi va yuksak mas’uliyatliligi;-Faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;-Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg’unligi.-Hamkorlik ishlarining ilmiyligi;

Bolaga insoniy munosabatda bo’lish, uning ichki dunyosini o’rganish, qayg’u, shodliklariga sherik (hamroh) bo’lishda tarbiyaviy, ma’naviy, soatlarning o’rni beqiyosdir. Ma’naviyat soatlari-muayyan moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi, yagona ijtimoiy tarbiyaviy maqsadga bo’ysundirilgan o’zaro ta’sirlar majmuidir. U o’quvchilarning o’ziga hos tomonlarini e’tiborga olib, barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Ta’lim muassasalarida haftaning har kunida ma’lum bir yo’nalish belgilanishi, ta’lim-tarbiya samaradorligiga o’zining hissasini qo’shadi.

Masalan: Dushanba-”Iqtisodiy bilimlar kuni” Seshanba-”Sport va sog’lomlashtirish kuni” Chorshanba kuni-Huquqiy savodxonlikni oshirish kuni” Payshanba-Ota-onalar kuni. Juma-”Ma’naviyat kuni”. Shanba kuni-Ozodalik kuni”.

Yosh avlodni ona Vatanga, istiqlol g’oyalariga sadoqat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular ongiga xalqimizning

boy milliy merosi va tarixiy o'tmishiga muhabbat tuyg'ularini singdirish aholi dam olishini mazmunli tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11-iyulda "Davlat Muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi."Muzeylar haftaligi"va uning doirasida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish amalga oshirilmoqda.O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida o'zbek xalqi bilan bir qatorda,boshqa xalqlarning ham madaniyati,tarixi, san'ati,milliy an'analarga bo'lgan hurmat hissining shakllantirilishi hamda ularning yetuk qilib tarbiyalshda madaniyat maskanlariga ekskurtsiyalar uyushtirilmoqda.

Ma'naviy–ma'rifiy ishlar.Vatanparvarlik targ'iboti.Prezident asarlarini o'rganish. Komil inson targ'iboti. Milliy qadriyatlar targ'iboti. Milliy bayramlar targ'iboti. Buyuk allomalar va siymolar targ'iboti.Yoshlarni milliy teatr,kino,musiqa san'atimizga jalb etish. Ijtimoiy hamkorlik g'oyalari targ'iboti. Davlatimiz ramzlari targ'iboti. Umuminsoniy qadriyatlar targ'iboti.Millatlararo totuvlik targ'iboti. Tinchlik, bunyodkorlik targ'iboti.

Ma'naviyat darslarida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi: Ma'naviyat kuni, Ma'naviyat haftaligi, Ma'naviyat soati;Tarbiyaviy soatlarni to'g'ri tashkil etish.Maktabdan tashqari ishlarni jonlantirish.Ota-onalar yig'ilishlari belgilangan mavzular asosida tashkil etish;Oila-mahalla ta'lim muassasa jamoatchilik kengashi ishini jonlantirish;Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini to'g'ri shakllantirish; "Kamolot va kamalak" yoshlar ijtimoiy harakatlarini qo'llab quvvatlash; Haftaning seshanba va juma kunlari muzeylarga borishlarini tashkil qilish.Ma'naviyat darslarini tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:O'quvchilarni psixo-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olish.Muammolarni aniqlash,mashg'ulot metodlarini to'g'ri tanlash Interaktiv topshiriqlar;Muammolar yechimini topishga yo'naltirish. Yakuniy xulosa. Har bir o'quvchining shaxsiga alohida e'tibor qaratish. Sinf ma'naviy soatlarini o'tkazish tartibi va usullari turlicha bo'lishi mumkin:Suhbat,lektsiya uyushtirish,kundalik matbuot yangiliklaridan xabardor qilish, jonli muloqot-uchrashuvlar.Video-dars.

Guruhlarda ishlash,tahlil, mustaqil ishlash; O'qish, tahlil qilish. Yo'naltiruchi matn, muammoli vaziyat, mustaqil,muammolar bilan ishlash,tahlil.

Ma'naviyat soatlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir: Vatanparvarlik, Axloqiy tarbiyasi. Huquqiy tarbiya.Gigiyenik tarbiya.Ekologik. Estetik tarbiya. Kasbga yonaltirish(mehnat) tarbiyasi.

## **II-BOB. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligining mohiyati, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari**

### **2.1. Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi farzandlarimizning jismonan va ma'nan yetuk bo'lib ulg'ayishida muhim sharti sifatida**

“Odamga bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o'yib yozilgan qarflarga o'xshaydiki, ular daraxt bilan birga o'sadi va uning ajralmas qismiga aylanib qoladi”.

**Viktor Gyugo**

Har bir millat o'z istiqbolini kamolga yetayotgan yoshlari timsolida ko'radi. Shu bois mamlakatimizda istiqloq yillarida navqiron avlod o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish, ularni turli zararli ta'sirlardan asrash, pirovardida barkamol inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Bu borada davlat idoralari bilan birga, jamoat tashkilotlari, xususan, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, uning hududiy tuzilmalari, yurtimizda mavjud 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlarining ham salmoqli hissasi bor.

Yoshlarimiz ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgidek murakkab sharoitda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan xurujlar, ularning ongi hamda qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani har birimizdan yanada hushyor va ogoh bo'lishni talab etmoqda.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari, ayniqsa, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga mas'ul vazirlik, idora hamda tashkilotlar, ota-onalar, mahallalar faollari, qo'ni-qo'shni, ta'lim muassasalari o'qituvchi va murabbiylari hamda jamoatchilik zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, ertamiz egalarini yurtparvar, insonparvar, yuksak ma'naviyatli, ulug' ajdodlarimizga munosib vorislar qilib voyaga yetkazish bugungi kunda muhimdir.

Bunda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o’zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori dasturilamal bo’lib xizmat qilayotir. Binobarin, mazkur hujjat asosida O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligida tashkil etilgan “Oila-mahalla- ta’lim muassasasi” hamkorligi jamoat kengashi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, shuningdek, xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo’limlari, umumta’lim maktablari huzuridagi hududiy jamoat kengashlari izchil faoliyat yuritayapti.

Ularning sa’y-harakatlari bilan oila, maktab, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari, fuqarolar yig’inlari o’rtasida hamkorlik tobora mustahkamlanib borayotir. Ota-onalarning farzand tarbiyasidagi rolini oshirish hamda yoshlar tarbiyasiga oid huquqiy, ma’naviy-axloqiy, fiziologik bilim va ko’nikmalarini mustahkamlashga ko’maklashish, ta’lim-tarbiya sifatini o’rganish, uni yanada yaxshilash, yoshlarning dars jarayoniga to’la qatnashishini ta’minlash bo’yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida ham muhim choralar ko’rilmogda.

2017 yilning o’tgan 9 oyi davomida ushbu hamkorlik doirasida mahallalar hamda ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini o’rganish, o’quvchilarning dars jarayoniga jalb etilishi, muntazam qatnamaydigan o’quvchilar ota-onalari o’rtasida tushuntirish ishlarini olib borish bo’yicha 75 mingga yaqin targ’ibot tadbirlari o’tkazilgan. Ta’lim muassasasi, mahalla faollari tomonidan bunday o’g’il-qizlarning darsga qatnashishi, ularning ta’lim-tarbiyasi va odobini alohida nazoratga olish, mas’ullarni biriktirish, turli to’garaklarga jalb etish ham doimiy nazoratda.

Bundan tashqari, joriy yilning aprel - may oylarida “Oila - mahalla - ta’lim muassasasi” hamkorligi hududiy jamoat kengashlari a’zolari uchun o’quv-seminarlar o’tkazilgan. Ularda 42 mingdan ortiq hududiy jamoat kengashlari a’zolari, shu jumladan, 17 ming nafardan ziyod diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy

tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar hamda fuqarolar yig'inlari raislari ishtirok etgan.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik ruhida kamolga yetkazish, ularni turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, mustaqilligimiz va hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan harakatlarga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarini manzilli tashkil etish hamda milliy qadriyat va urf-odatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni mavzuida mahallalarda 40 mingga yaqin tadbirlar o'tkazilgan. Ularga 1 million 480 mingga yaqin yoshlar ham qamrab olingan.

Ayni chog'da fuqarolar yig'inlari tomonidan yoshlarni to'garaklarga, jismoniy tarbiya va sportga jalb etishga katta e'tibor qaratilayotganini aytish zarur. Xususan, hozirgi vaqtda mahallalarda 30 dan ziyod sport turi bo'yicha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan hamda ularga jami 1 million 400 mingdan ortiq bolalar shug'ullanishmoqda.

Darhaqiqat, yosh avlod vakillarining har jihatdan sog'lom va barkamol ulg'ayishida sportning o'rni beqiyos. Shu sababli "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda an'anaviy "Futbolimiz kelajagi", "Mahallamiz pahlavonlari", "Biz - aql-idrokli oilalarmiz", "Otam, onam va men - sportchilar oilasi" kabi sport musobaqalari har yili o'tkazib kelinmoqda.

"Futbolimiz kelajagi" musobaqasi

Turnir bahslari 8786 ta fuqarolar yig'inida o'tkazilib, ularda 1 million 294 ming nafarga yaqin yoshlarimiz qatnashgan. Tahlillarga ko'ra, joriy yilda ishtirok etgan yoshlar soni o'tgan yildagiga nisbatan 33 ming nafarga ortgan. Musobaqalar zamonaviy futbol maydonlarida tashkil qilindi. Uning mahallalararo bosqichlarini o'tkazish uchun Fond hisobidan 41,4 million so'm, homiyar tomonidan esa 171,4 million so'm sarflangan.

"Biz - aql-idrokli oilalarmiz" bellashuvi

Joriy yilda ushbu musobaqaning mahallalar-aro bosqichi 8 ming 591 fuqarolar yig'inida o'tkazildi. Ularga oilalarning 242 ming 446 nafar a'zosi jalb qilindi. Bu 2015-yildagiga nisbatan 13 mingta ko'p deganidir.



Tuman (shahar) bosqichlarida 2 mingga yaqin oilaning 10 mingdan ziyod a'zolari ishtirok etgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichida 195 ta jamoaning 1100 dan ziyod vakillari o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdi.

“Otam, onam va men - sportchilar oilasi” turniri

Turnirning mahallalararo bosqichi 8 ming 705 ta fuqarolar yig'inida yuqori saviyada uyushtirilib, ularda oilalarning 282 ming nafardan ortiq a'zolari qatnashdi. O'tgan yili ushbu ko'rsatkich 8 ming 369 ta va 249 ming 696 nafardan iborat edi.

Bu maqsadlar uchun “Mahalla” fondi hududiy bo'linmalari tomonidan 5 million so'mdan, homiylar hisobidan 211 million so'mdan ziyod mablag' sarflandi.

“Mahallamiz pahlavonlari” bahslari

13-14 yoshdagi 46, 50, 55 kg. vaznlarda o'g'il bolalar va 44, 48, 52 kg. vaznlarda qiz bolalar o'rtasidagi kurash bellashuvlari 8 ming 770 ta mahallada uyushqoqlik bilan o'tkazildi. Bu o'tgan yildagiga qaraganda 339 ta ko'p deganidir. Shunga mos ravishda ishtirokchilar soni ham ortdi: 2015-yili 164 ming 356 nafar edi. 2017 yilda 187 ming 254 nafar o'g'il-qiz qatnashdi.

Bunga Fond hududiy tuzilmalari tomonidan 6,1 million so'm, vazirlik hamda idoralar, homiylar tomonidan 261,1 million so'm mablag' yo'naltirildi.

Umuman olganda, yoshlarimizni har jihatdan yetuk insonlar qilib voyaga yetkazish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, kompleks chora-tadbirlar natijasida ular ilmu fanda, sportda o'zga yurtlar yoshlaridan aslo kam emasliklarini isbotlashmoqda. Zero, islohotlardan ko'zlangan ezgu maqsad ham ana shundan iborat

## **2.2. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligida amalga oshirishning yo'llari, texnologiyasi**

Inson ma'naviyatining shakllanishida oilaning o'rni juda katta. Oila ham jamiyat taraqqiyotiga va oila a'zolari o'rtasidagi mehnat bo'linishiga qarab mohiyatini o'zgartirib turadi. Ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari, bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy, axloqiy, nafosat, mehnat va ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir tarbiya deyiladi. Oilalar respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiyliги asosida rivojlanadi.

Oilada o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, bir-biriga ishonch holati mavjud ekan, bunday oilada rostgo'y, samimiy, mehribon, o'rtoqlariga doimo yordam berishga tayyor bo'lgan inson kamol topadi. O'zida odobli kishida xos fazilatlarni mujassamlashtirgan kishilarning oilalarida doimo quzur-qalovat va samimiy hurmat qaror topadi.

Kelajagimizning qanday bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq.

Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi asos oiladir. Oila jamiyatning boshlanqich ijtimoiy bo'qin sifatida murakkab tarkibga ega bo'lib, u o'z faoliyatida oila a'zolarining ehtiyoji va qobiliyati, turli faoliyatining maqsad va vazifalarigina emas, balki tarbiyaviy faoliyatining hayotiyliги ikki tomonlamadir:

- birinchidan, jamiyatning kichik bir qismi, ijtimoiy o'zgarishlarni o'ta sezgirlik bilan ilqab oladigan, o'zida aks ettiradigan belgidir. Shunga asoslanib oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiyaning asosiy qismlaridan biri deb hisoblash lozim;

- ikkinchidan, oilaning murakkab va ko'p qirrali faoliyati uning vazifalari va tuzilishlariga, ijtimoiy turmush tarziga, oila a'zolarining ijtimoiy faoliyatiga, uning barcha qiziqishlari, ehtiyojlari va munosabatlariga bog'liqligini nazardan qochirish kerak.

Oilaning tuzilishi va vazifalarini tahlil qilib, u jamiyatning ijtimoiy ma'naviy o'zagi ekanligini yana bir bor ayon bo'lmog'da. Shu sababli oilaning aniq bir

maqomi, asos bo'lishi kerak va u kishilar o'rtasidagi munosabatlarini tartibga solish, yoshlarda axloqiy fazilatlarni, jismoniy kamolotini, aqliy ziyraklikni shakllantirilishi zarur.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy kamoloti yoshlarini turli ijtimoiy vazifalarni bajarishga, to'plangan munosabatlarga doir tajribalarga, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga har tomonlama va uzoq tayyorlash lozimligini talab etmoqda. Oilaviy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etuvchi ob'ektiv omillarga oilaning moddiy farovonligi, daromadlarning turlari, darajasi, maktabgacha muassasalardan foydalanish, shuningdek, oila a'zolarining soni, tarkibi va boshqalarni kiritish lozim. Sub'ektiv omillarga esa oiladagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ma'lumoti, oila a'zolarining madaniy-ma'naviy saviyalari, ota-onalarning muomala madaniyatlari va boshqalar kiradi.

Oilaviy tarbiyaning murakkabligi yana shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam, jamiyatning o'ziga xos kichik uyushmasi bo'lib, tarbiya ishida o'ziga xos xususiyatlarni namayon etadi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning shakli va xususiyatlari umumlashtirish va unga biron bir tavsiyalar berish noqulay va qiyindir. Ota-onalar qanchalik ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori ma'lumotga ega bo'lsalar shu darajada takomilashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar. Ular faqat maslahat berish, maquullash, mukofatlash, jazolash, suhbat va hikoya, fikr almashishgina emas, balki shaxsiy namunalari-bolalari bilan birgalikda ishlash, ularni mehnat faoliyatiga tortish orqali ham tarbiyalaydilar. Bolalar faoliyatiga ta'sir etish ishtirok etish, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng samarali usulidir. Agar bolalar ota-onalarning jismoniy mashg'ulotlariga o'ta qiziqish bilan munosabatda bo'lishsa, ular o'rtasida do'stona munosabatlar qaror topadi. Bolalar ota-onalardan, aka va opalaridan o'zora munosabat mezonlarini o'rganib, nima yaxshi-yu nima yomon, nima foydali-yu va nima zararli ekanligini bilib oladilar. Ular haqida yaqin tasavvurga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, oila tajribali va kasbi jihatidan turlicha yoshdagi kishilarning birlashtirib turadi. Oila a'zolarining turmush va hayotiy tajribalari, madaniy saviyalar qanchalik boy

bo'lsa, ular bolalar bilan shu darajada yaxshi mulohotda bo'la olishadi, bolalarning qiziqishlarini jismoniy tarbiya o'stira olishadi.

Oilada bolalarga jismoniy tarbiya berishda ota-onalarning namunali, ularning sport sevarligi, oilaviy ishlarga javobgarligi, ish yuritish, o'g'il bolalarga nisbatan otaning qizlarga onaning ustozlik, raqnomalik ishlari asosiy o'rinni egallaydi.

Bolani so'kishga, qo'pol gapirishga o'rgatish, uni odatdan tashqari erkalash nomaqul usuldir.

Xalq pedagogikasida ta'kidlaganidek "Bola aziz, odobi undan aziz", "Bola tarbiyasi beshikdan", "Bolaning erkasi bitning sirkasi", "Erkalatsa onasi, tanti bo'lar bolasi", "qizni erkalatsa joningga tegar, o'g'ilni erkalatsang burningga tepar".

Oilada har bir bolaning hatti-harakatiga nisbatan rag'batlantirish yoki hattiqo'llik bilan munosabatda bo'lish, tanbeq berish, jazolash tarbiyada sinalgan metoddir. Ona bolani qilgan hatti harakati uchun jazolayotganda, nasihat qilayotganda ota uni tarafini olmasligi, ota tarbiyaviy ish olib borayotganda esa ona aralashmasligi lozim. Bu bolani ikkiyuzlamachi, qech qanday tenbeq jazodan qo'rqmaydigan, yolqon so'zlovchi, ota-onaning har ikkalasini ham hurmat qilmaydigan obro'siz qilib qo'yadi.

Oilada farzand tarbiyasida sinalgan tarbiya metodlaridan biri-namunadir. Bolaga aqliy, axloqiy, estetik, diniy, jismoniy mehnat tarbiyasi asoslari ota-ona namunasi asosida singdirib boriladi.

Oilada farzandni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlikka o'rgatish, dunyoviy ilmlar va hayot ilmidan voqif etish, kasb-hunar sirlarini qunt bilan egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berish, ularning hayot so'qmoqlarida adashib qolmasligi va ravon yo'ldan borishda yordam beradi.

Shunday qilib, oila tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyasi hisoblanmish ota-onaning o'z burch va vazifalariga munosabatda bo'lishiga bog'liqdir.

Oiladagi har bir kishining o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishi oila mustahkamligi, jamiyat farovonligiga erishishning omilidir.

Mamlakatimizda bolalar to'g'risida, onalar haqida g'amxo'rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. "Jamiki yaxshi narsalar-bolarga" shiori yanada baralla jaranglamoqda.

Ma'lumki, bola maktabga kelganga qadar qam, maktabda o'qish davrida qam, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy ko'rtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy qoldir. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning darstlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ota-onalarning o'ziga va bolalariga bo'lgan talabchanligi, katta va kichiklarning o'zaro munosabatlari, do'stona muhit, ishonch va o'zaro bir-birlarini tushunish oila, mahalla va maktab bolalar jismoniy tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan muhim omillardan biridir. Bundan birlikni ro'yobga chiqishida, eng avvalo, ota-onalarning ongliligi muhim rol o'ynaydi. Chunki, ota-onalarning faolligi oilaviy hayotda o'z ifodasini topadi.

Bola tarbiyasi yuzasidan oila, mahalla va maktab hamkorligi hozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Chunki, birinchidan, bola tarbiyasida oila, mahalla jamoatchilik hamkorligini o'zi murakkab jarayon bo'lib, ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlar, kasaba uyushmalari ishtirok etadilar. Ikkinchidan, ota-onalar va qarindosh-urug'lar turli mehnat jamoalarining vakillari bo'lib, ishlab chiqarish va yoru do'stlarning ma'naviy hayotlaridagi omillari muqokama qiladilar. Ularning hayotga, san'atga, oilaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradilar.

-Uchinchidan, o'zbek oilalari, ularning hayot tarzi jumhuriyatimizdagi o'lgan ijtimoiy voqealar natijasida sifat jihatidan o'zgarishlarga uchramoqda. Shu sababli hozirgi kunda oilaviy tarbiyada sifat va mazmun jihatidan o'zgarishlar qilish uchun yangi samarador yo'l va usullar qidirilmoqda.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 4-bo'lim 6-bandida "Muassasa tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sotiq, doiralarning, jamiyat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga

oluvchi vasiylik va kuzatuv jamoat boshqaruv tizimi joriy etiladi” deb belgilab berilgan.

O’zaro hamkorlik ishlarini belgilab berish, boshqarish uchun joylarda o’z tarbiyaga mahallalar faollari, obro’li ota-onalardan, o’quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan turli yo’nalishlarda faoliyat ko’rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarni tuzishi mumkin.

Jamoatchilik kengashi ma'lum bir muddat mo’ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yiqinida tasdiqlab olish, amalga oshirishi zarur bo’ladi.

Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biron bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, anjumanlardan, mahalla aqlini birlashtiruvchi, ularni sog’lom turmush tarziga etaklovchi ko’rik-tanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga baqishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo’lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o’z faoliyati to’g’risida mahalla aqliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug’ilgan o’quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxonalar va idoralarning ta’lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to’g’risidaga hisobotlarni tinglab, ularga amalga va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o’z farzandlari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma’muriy choralarni qo’llashi mumkin.

Kengash tashabbusi bilan biron bir dolzarb mavzuda favqulotda mahalla yiqinlari, o’quv-tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil qilib o’tkazilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o’zbek milliy tarbiya an’analarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o’tkazish, bolalar va kattalarning bo’sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o’yingoqlar,

madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o'smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalari ishini muvofiqlashtiradi.

Kengash o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar beradi, tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi.

Kengash yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda mahalla, oila va maktab hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarni mahalla hududidan o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilotlari, tashkilot va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning baqamjihatligini ta'minlaydi.

Biz agar har bir mahalla oldida ana shu hamkorlikning ish faoliyatini to'laqonli ravishda amalga oshirib borsak, qo'l uchida qaramasak kelajak yosh avlodni barkamol bo'lib o'sishida o'z qissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Tabiatda daraxt ya'ni ko'chatni parvarishlab, qarab borsakda, ko'chat tik bo'lib o'sadi.

Ta'lim va tarbiya sohasida e'tiborni ko'chaytirish bu borada qukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila mahalla va jamoatchilik hamkorligi faoliyatini o'ziga xos pedagogik tizim uslubi va shakllariga ega bo'lishi zarur.

O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali ta'sirchan, ommabop amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. hamkorlik mavzularning tadbirlarning mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobingga balli", "Sog'lom tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "qizil ibosi", "Bir yigitga qirq hunar oz", "O'g'lim posbonim", "hayot-ustoz, xalq muallim", "O'zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va ma'suliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch-mahalla tinch", "Mustahil hayot bo'saqasida", "Askarlik yigitlik maktabi", "Oila baxti-Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz oqanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz hech

kimdan kam bo'lmaganmiz va kam bo'lmaymiz qam" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

### **2.3. Muammo bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili.**

Tarbiya bir umr davom etadigan jarayon. Inson yoshligida ham, kamolot chog'ida ham, keksalik davrida ham doimo boshqalardan, hayot saboqlaridan ko'p narsani o'rganadi, ibrat oladi, yangi xulosalar chiqaradi. Lekin inson kamolotiga asos bo'ladigan barcha boshqa omillar oiladagi tarbiyani o'rnini ololmaydi. Jamiyat rivojlangan sari oiladagi tarbiyaning ahamiyati, shu bilan birga ota-onaning mas'uliyati ham ortib boradi. Yaxshi tarbiyalangan farzand ota-onaning baxti, yomon farzand bir umrlik dardidir. Ota-onaning qalbiga noqobil farzandlar etkazgan dard, alamni qech bir shifokor davolay olmaydi.

Oilada bola tarbiyasini ancha erta boshlab, uzluksiz, bosqichma-bosqich adolatli olib borgan ma'qul. O'zbeklar ho'l novdani xohlagan tomonga egish mumkin, deyдилar. Oiladagi tarbiya ham farzand ho'l novdadek egiluvchan bo'lgan bir davrda ko'proq samara beradi. Shu sababli ham oilalarda olib borilgan tajribalarga asoslanib farzand tarbiyasini uch davrga bo'lsa bo'ladi.

Bular quyidagilardir.

Bola bir yoshdan sakkiz, o'n yoshgacha bo'lgan davr. Bu davrda bolaga yurish, turish, axloq va odobning oddiy qoidalarini o'rgatish, uning hatti-harakatlaridagi yaxshi tomonlarini rag'batlantirish, yomon tomonlarini cheklashga to'g'ri keladi. Bolani ozodlikka, kattalarga salom berishga o'rgatish ma'naviyati poydevoriga qo'yilgan birinchi hislardir.

Inson ma'naviyatidagi eng katta tubanlashish yosh bolaning kichik hatti-harakatlari, noo'rin qiliqlaridan erkaliklaridan boshlanadi. Bu davrda bolaning ongida tabiat, jamiyat, inson hayoti haqidagi birinchi tasavvur va tushunchalar shakillanib uning qalbida chuqur o'rin oladi. Yosh bolaning hayotiy tajribasi yo'qligi, yaxshi bilan yomonni, foydali narsa bilan foydasiz narsani ajratish imkoni bo'lmagani uchun ota-onaning kattalarning yo'l-yo'riqlari, pandu



nasihatlari haqiqatni bilishning asosiy yo'li bo'lib qoladi. Oila tarbiyasi xuddi shu davrda e'tiborli va samarali bo'ladi.

O'n, o'n bir yosh bilan o'n olti yosh o'rtasida bolaning ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatish ancha murakkab mas'uliyat bo'lib qoladi. Bu davrda tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sirida o'g'il va qiz bolalar o'zini ruqan, aqlan etuk qis qilishi, o'ziga ishonish tuyg'usi kuchayadi. Agar oilada bola yoshligidanoq yaxshi tarbiya berilmagan bo'lsa, bu davrda ularga ta'sir ko'rsatish imkon ham qiyinlashadi.

Oilada yaxshi tarbiya olmagan bo'lsa, bu davrda ularga ta'sir ko'rsatish imkoni ham qiyinlashadi. Oilada yaxshi tarbiya olmagan bola bu davrda har bir ishga hatti-harakatlaridagi o'zio'zicha baqo berishga intiladi. O'z qilmishi nimaga olib kelishini to'la tasavvur eta olmaslik esa oqir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu davrda ayniqsa bolani bo'sh vaqti bo'lmasligi, mahalladagi har xil jumladan sport to'garaklarga jalb qilinishi kerak.

O'n besh, o'n yoshdan boshlab bolalarga axloq, odob, yurish turish mezonlarinigina o'rgatish bilan cheklanib qolmay ularni bevosita amaliy ijtimoiy hayot ehtiyojlari asosida tarbiyalash lozim.

Albatta farzand tarbiyasidagi shu uch bosqichni bir-biridan butunlay ajratib bo'lmaydi. Lekin inson ijtimoiy ma'naviy kamol topib borishi bilan unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning mezonlari me'yorlari, imkoniyatlari, mazmuni maqsadlari o'zgarib borishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Farzand katta bo'lganida ham unga bolaligida qilingan munosabati takrorlash to'g'ri emas.

Bola katta bo'lgach, ota-onaga hamkor maslahatgo'y bo'lib qoladi. Oilada biron bir ish qilinmoqchi bo'lganida balog'atga etgan farzandlari bilan maslahatlashishi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu yoshlarda o'ziga ishonch tuyg'usi mustahkamlanishi uchun nig'oyatda muhimdir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyaning oqibatlari oiladagi tanlangan uslubga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, "qush uyasida ko'rganini qiladi", "Ko'rganakdan o'rganak" xalq maqollari bejiz aytilmagan.

Tarbiyaga umumiy yondoshishini hisobga olib oilada asosiy e'tiborni axloqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasi, bolalarni estetik va jismoniy rivojlantirish masalalarni hal qilishga qaratish lozim.

Oilaviy jismoniy tarbiyada qator axloqiy jismoniy sifatlar shakllanadiki, boshqa tarbiya jarayonlarida bolalar bunchalik muvaffaqiyatli rivojlana olmaydilar. Bularga insonparvarlik tuyg'usi, rahmdillik, e'tiborlilik, hamdardlik, qayg'udoshlik, mulohot madaniyati, nazokat, so'zining ustidan chiqish, hozirjavoblik, minnatdorchilik tuyg'ulari kiradi va aksincha, xuddi shu oilaviy munosabatlar doirasida ularning uslublari va an'alariga bog'liq ravishda xudbinlik, toshyoraklik, kattalarga hurmatsizlik, atrofdagilar ehtiyojiga e'tiborsizlik, o'smirning mas'uliyatsizligi, berahmlik, surbetlik, qo'pollik sifatlari shakllanishi mumkin.

Oilada bolalarning ko'pchilik bo'lishi ularning axloqiy, jismoniy shaxsiy shakllanishiga yaxshi sharoit yaratadi, xudbinlik, individualizm, yotsirash, odamovilik va boshqa salbiy xususiyatlarining rivojlanishiga kam imkoniyat qoldiradi.

Ko'pincha ota-onalar o'z farzandi noqobilligidan noliydilar lekin bu noqobillik fazilatlarini shakllanishida o'zlari aybdor ekanlariga to'la to'g'ri tasavvur eta olmaydilar. Agar ota-ona farzandni ichki dunyosini yoshligidanoq axloq, odob, ilm, hunar, imon, insof, vijdon, halollik, mehr-muruvvatlilik, rahm-shavqatlilik va talabchan bo'lganida shunday oqibatlariga duchor bo'lmagan bo'lar edi.

Oiladagi bola tarbiyasida ota-onaning o'rni muhim betakror ekanini, shu bilan bir qatorda qo'ni-qo'shni, tevarakatrof, mahalla aqlining ham roli beqiyos ekanligini unitmasligimiz lozimdir.

Keyigni paytlarda ana shu qo'ni-qo'shni, mahalla ahlining bola tarbiyasidagi, ularning yurish-turishlari, kiyinishlari, o'zlarini ko'chada tutishlariga, muammola madaniyatlariga bir qadar pastga tushganligiga kuzatilmoqda.

Ishimiz davomida shu narsaga amin bo'ldik. Masalan, Buxoro shahridagi mahallada o'tkazilgan Anketa so'rovnoma da 26 ta respondent qatnashdi. Natijada esa quyidagicha.

<b>№</b>	<b>Savollar</b>	<b>ota</b>	<b>ona</b>	<b>bobo</b>	<b>buvi</b>	<b>%</b>
1	Bolangizning tarbiyasi bilan shug'ulanasizmi?	26	26	5	6	100%
2	Bolangizni kelajakda kim bo'lishini orzu qilasiz?	Odobli 10	Aqlli 20	Aqlli 10	Odobli 6	100%
3	Bolangizni do'stlarini bilsizmi?	15	6	10	2	100%
4	Mahalladoshlar bolangiz haqida yomon fikr bildirsa qanday qabul qilasiz?	Yaxshi 26	Yaxshi 26	Yaxshi 26	Yaxshi 26	100%
5	Mahalla qoshidagi sport to'garaklariga farzandingiz a'zomi?	Ha 26	Ha 26	Ha 26	Ha 26	100 %
6	Farzandingizni bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganidan xabardormisiz?	Yo'q 10	Ha 15	Ha 6	Yo'q 2	100%
Jami	6 ta savol	113	248	83	68	512
		294%	64,5%	10%	17,7%	126%

Natijalardan ko'rinib turibdiki, oilada mahallaning o'rnini, mahalla aqlining bir-biriga munosabati ancha pastligi kuzatildi.

Bu esa bizning mentalitetimizga begona bo'lgan holatdir. Axir ajdodlarimizning birinchi navbatda oilaga bola tarbiyasiga e'tibor berganlar. Zero, xalqimizda "Bir bolaga etti qo'shni ota-ona", "Bir toqa etti ota o'rnida", "Mahallang-ota-onang" kabi mahollar bejiz aytilmagan.

Bu holatlarni oldini olish maqsadida joylarda seminar va tushuntirish ishlari olib borildi va ma'lum muddat ichida respondentlardan yana o'tkazilgan tadqiqotda ijobiy tomonga o'zgarish sezildi.

Juda ko'p oilada bolaning jismoniy tarbiyasida tajribalarning kuzatish va o'rganib, materiallariga tayanib, oilada bola jismoniy tarbiyasida yo'l qo'yiladigan holatlarni sababi haqida quyidagilarni aytish mumkin.

Ba'zi ota-onalar bolalar jismoniy tarbiyasida jamiyatimiz talablarini hisobga olmaydilar.

Ota-onalarning ko'pchiligi bolarga yaxshi tarbiya berish niyatida bo'lsa qam, lekin bu sohada tarbiya usullaridan oqilana foydalanish qonuniyatlarini bilmaydilar.

qator oilarda bolaning mayli va istagini hisobga olib uni oqilona yo'lga solmaydi.

Ba'zi ota-onalar ish bilan band bo'lib bola tarbiyasi bilan deyarli shug'ullanmaydilar.

Ayrim ota-onalar bola tarbiyasida fikr bildirgan qo'ni-qo'shnini yoqtirmaydilar, ular bilan hisoblashmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, ota-ona o'z farzandi tarbiyasiga e'tibor berimasligi, uni o'z holiga tashlab qo'yishi, bu sohadagi vazifalarga bir tomonlama qarash, ota-ona burchini jamiyat oldidagi mas'uliyatni his qilmaslikdir. har bir oila o'z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug'ullanishi bu esa barkamol avlod ta'lim-tarbiya ishining o'ziga xos tomonlarini qonuniyatlarini bilishi zarurdir.

Mahallada tajriba ishlari tashkil etildi. Ota-onalar bilan bir necha marta suhbatlar fikr almashuvlar o'tkazildi. Ilmiy tadqiqot mavzusidan kelib chiqib savollarga javoblar olindi. Ota-onalarning savollariga savollariga bergan javoblarini 3 g'uruiga ajratdik.

I-guruh axloq odob hamda axloqiy, jismoniy tarbiya mazmun va mohiyatini ta'rif va tasnifi shuningdek mustahil respublikamiz kelajagi bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashni shakl va usullarini yaxshi tushunadigan, farzandlarini axloqiy tarbiyalash jarayonida sharq mutafakkirlarining pedagogik merosidan muntazam foydalanib boradigan oilalarni kiritdik.

II-guruh axloq odob hamda axloqiy, jismoniy tarbiya mazmun va mohiyatini ta'rif va tasnifi shuningdek, bolalarni axloqiy tarbiyalashning shakl va

usullarini tushunadigan lekin har doim ham amal qilavermaydigan hamda xalq pedagogikasi va Sharq mutafakkirlarining hayoti, faoliyati va merosi haqida kam ma'lumotga ega.

III-guruh axloq odob hamda axloqiy, jismoniy tarbiya mazmun va mohiyatini ta'rif va tasnifi shuningdek, bolalarni tarbiyalashning shakl va usullarini yaxshi bilmaydigan, amalda foydalanmaydigan, xalq pedagogikasidan va Sharq mutafakkirlarining hayoti, faoliyati va merosi haqida kam ma'lumotga ega bo'lgan va bu meroslardan farzandlarni axloqiy, jismoniy tarbiyalashda foydalanmaydigan oilalarni kiritdik.

Ota-onalarning savollarga berilgan javoblari quyidagicha bo'ldi.

	Ota-onalar soni	1-guruh	%	2-guruh	%	3-guruh	%
.	50	2	4	8	16	40	80
.	50	6	12	14	28	30	60
.	50	9	18	25	50	16	32
.	50	36	72	14	28	-	-

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, ota-onalar bilan o'tkazilgan dastlabki so'rovda [2017 yil sentyabrda 2-nafar yoki 4 % ota-onalarning javobi 1-guruhga, 8-nafar yoki 16% ] ota-onalarning javobi 2-guruhga, 4-nafar yoki 8% ota-onalarning javoblari 3-guruhga oid bo'ldi. Yil davomida oilarda o'tkazilgan "Jismoniy tarbiya" saboqlari "Ma'naviyat" saboqlari, "Mustahil respublikamiz bolarini tarbiyalash muhim masala" kabi mavzular, suhbatlar, fikr almashuvlar o'tkazildi. 2018 yil fevral oyidagi 2-anketa so'rovida savollarga javob bergan oilaning 6 nafari yoki 2%, 1-guruh 14 nafar yoki 28%, 2-guruh 30 nafari yoki 60 %, guruh darajasida javob berishdi.

Mahallada oilalar sharq mutafakkirlarining hayoti, faoliyati va pedagogik meros hamda mustahil respublikamizda axloq-odob hamda jismoniy tarbiya masalalari haqidagi tavsiya etilgan bir qator adabiyotlarni farzandlarini jismoniy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlarini o'rganib boradilar. Natijada 2018 yil

mart oyida 50 nafar ota-onadan 9 nafar yoki 18% savollarga 1-guruh 16 nafar yoki 32%, 3-guruh, 25 nafari yoki 50%, 2-guruh darajasida javob berishdi. Yil davomida ota-onalar bilan bir qator suhbatlar o'tkazildi. Tajriba o'tkazilgan mahallalarda, mahalla va maktab sport qo'mitalari bilan hamkorlikda davra suhbatlari, fikr almashuvlar o'tkazildi.

Ota-onalar bilan o'tkazilgan tajribalar quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi:

-tajribada qatnashgan ota-onalar sharq mutafakkirlarining hayoti haqida bilimlarga ega bo'ldilar va o'z farzandlarini jismoniy tarbiyalashda bu merosdan faol foydalanmoqdalar;

- aksariyat ota-onalar farzandlarini jismoniy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi keng imkoniyatlarga ega va bundan keng ko'lamda foydalanish zarur deb hisoblaydilar;

- oilada ota-onalar tajriba boshlagunga qadar farzandlarni jismoniy tarbiyalashda nasihatbozlik, qurug' gap so'zdan foydalangan bo'lsalar, tajribadan keyin fikrlari aniq, dadil va isbotlar orqali farzandlari ongiga singdiradigan bo'ldilar.

Oilada bola jismoniy tarbiyasi va oila mustahkamligi ta'minlanadi. qachonki,

-oilada bola jismoniy tarbiyasida etarli darajada kattiqqo'l va talabchan bo'lsa;

-bolalarning yoshligidan qalbiga ma'naviyat va jismoniy tarbiya urug'larini ekish;

-oilada o'zining shaqsiy fazilatlari bilan ibrat, namuna bo'lish;

-qo'ni-qo'shnilar bilan adolatli bo'lish;

-mahalla, jamoatchilik ishlarida faol qatnashish;

--ota-onalar farzandlarini ichki ruhiy ehtiyojlarini, qiziqishlarini hisobga olib borish;

-oilada farzandiga milliy mafkura, milliy iftixor, vatan, oila, mahalla kabi tushunchalarni qalbiga singdira bilish;

Bularning hammasi mustaqil O'zbekiston oilalaridagi kundalik burch va vazifalariga aylanmog'i lozim. Shundagina farzandlari barkamol mustahkam bo'ladi.

## X U L O S A

1. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida to'plangan dalillar, bayon qilingan fikr va mulohazalardan quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

2. Jamiyat oiladan tashkil topadi. Jamiyatning tashkil topishi va taraqqiy etishi oilaga bog'liqdir. Chunki inson zotini davom ettiruvchi avlod mehnat qilib, moddiy va ma'naviy boylik yaratuvchilar jamiyatni boshqaruvchilar oilada dunyoga keladilar va tarbiya ta'siri kamol topadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oila hamma davrda ham jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy o'ziga yaqqol aks ettirgan ijtimoiy rivojlanish yo'lida paydo bo'lgan ijtimoiy muammo va qiyinchilarni qal etishda muhim o'rin tutadi.

3. Oila, mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy va ma'naviy islohatlarni amalga oshirishda, sifat jihatidan yuksak pog'onaga ko'tarishda moddiy va ma'naviy jihatidan tayanch vazifasini bajaradi.

4. Oila madaniy hodisa sifatida xalqimizning boy va qadimiy tarixini moddiy va ma'naviy merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analarini avlodan-avlodga asl holda etkazadigan, milliy faxr sifatida avaylab-asraydigan va jahon miqyosida umum insoniy qadriyat tarzida namoyish eta oladigan uyushmadir. Shuningdek, jamiyatimizning farovonligi jahonga taraqqiy etgan davlatlar sifatida o'rin olish uchun to'la imkoniyat yaratmoq niyatida mehnat qiladigan jismoniy, sog'lom, ma'naviy boy, axloqiy yetuk, pok, komil farzandlarini ham oila tarbiyalab, voyaga yetkazadi.

5. Oila, mahalla va maktab hamkorligida yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda uning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim. Chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

6. Oila, mahalla va maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga va boshqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

- jismoniy ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;

- jismoniy tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;



- hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng huquqligi va yuksak mas'uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligidir.

Xullas, barkamol insonni, ya'ni avvalo oila uchun, qolaversa, o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi, erkin shaxsni jismoniy tarbiyalash oiladan boshlanadi. Shuning uchun maktab o'qituvchi-tarbiyachilar, mahalla, jamoyat, tuman raqbarlari oila ravnaqiga va ayni choq oila tarbiyasiga diqqat-e'tiborni qaratishlari zarur.

8. Zotan, har bir kishi oila va jamiyat dialektik birlik ekanini qech qachon unutmasligi va ularning doimiy jipsligi uchun qayg'urishi, g'amxo'rlik qilishi lozim. Bu tushunchani barcha ziyolilar yoshlar ongi va tafakkuriga singdirishlari muhim vazifadir.

#### **Mulohazalar va takliflar:**

Oila jamiyatning asosiy bo'g'unidir. Bu bo'qunlar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Islom dinining oila va oilaviy munosabatlarga oid shariat haqidagi ta'limoti, asosan Qur'on va hadislarda ifodalangan. O'zbek oilalarida Nikoh orqali shar'iy yo'l bilan juft bo'lib yashash.

Bola tarbiyasida oila, mahalla va maktab harakatlarining ish birligidir.

hamkorlikda olib boriladigan ishlar mahalla hududida barcha yoshlarni qamrab olishi hamda ularning qiziqishi va intilishlariga mos bo'lishi lozim.

Farzandlariga berilayotgan jismoniy tarbiya zamin ruhiga, zamon imkoniyati va ehtiyojlariga davlat belgilangan rejalar tizimiga mos kelishi lozim.

Farzandning xoxish-istaklarini inobatga olish lozim.

Farzand jismoniy tarbiyasida ota-ona o'z dunyoqarashini, tasavvurlari va tushunchalari chegarasida holib ketmasligi lozim.

farzandlarga nisbatan kerak bo'lganda mehribonlik qilish ma'lum vaziyatlarda hattiqo'l bo'lishlari lozim.

Hamkorlik jarayonida bolaga hurmat va talabning uyg'un holatda bo'lishi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.; «O'zbekiston». 2008. 40 bet.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.; «Sharq». 1997. 64 bet.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. –T.: “O'zbekiston”, 1996, -366 b.
4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni millat qilishga xizmat etsin. –T.: “O'zbekiston”, 1998. -23 b.
5. Karimov I.A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. –T.: “O'zbekiston”, 1998, -480 b.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: “O'zbekiston”, 1992, -32 b.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. –T.: 1998, -432 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI ars bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O'zbekiston”, 1997. -326 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: “O'zbekiston”, 1999, -48 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: “O'zbekiston”, 1998, -587 b.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008 y.
12. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T., O'zbekiston, 2009 y.
13. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi [O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi]. – T.: “O'zbekiston”, 2010.
14. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omili. [Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul-qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi]. “hurriyat gazetasi” 2010 y. 8 dekabr.

15. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimizga Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. [Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariva 2011 yilda mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga baqishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi]. [21 yanvar 2011 y.] "Xalq so'zi" 2011 y. 22 yanvar.
16. Abdurauf Fitrat. Oila. –T.: "ma'naviyat", 2000, -12 b.
17. Abu Nasr farobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: 1993, -224 b.
18. Abu Rayhon Beruniy. hikmatlar. –T.: 1973, -174 b.
19. Temur Ko'rogon. Zafar yo'li. –T.: 1992,
20. Abu Ali ibn Sino-Tib qonunlari. 1983-78 bet.221b.
21. Ahmad "Nodir voqealar", 1984-41 bet.
22. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoqud axloq.-T., 1966.-11b.
23. Alisher Navoiy. Mahbubul qulub. Tanl. As. To'p. T.13-T.15 tom. 17 bet.
24. Azizova T.M. Zamonaviy o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxs shakllanishi. xalq ta'limi. 1998.3-son-T. 15-tom, 21 bet.
25. Ashurov A. Avestodan meros marosimlar. –T.: 21- 32 b.
26. Axloq odabga oid hadis namunalari. –T.: "Fan" nashriyoti. 199, 38-40 b.
27. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. –T.: "Cho'lpon", 1995. -176 b..
28. Buyuk siymolar, allomalar. II kitob. Nashrga tayyorlovchi. M.Xayrullaev. –T.: 1996. -12 b.
29. Kaykovis. Qobusnoma. –T.: 1992. Istiqlol. 86 b.
30. Musurmonova O. Oila ma'naviyati. –Milliy g'urur. –T.: 1999. -2 b.
31. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. –T.: "O'qituvchi", 1994. -43-49 b.
32. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. –T.: "O'qituvchi", 2001 -339 b.
33. Fozilov Sh., Sulstonov R., Saidov Q. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. 149-16 b.
34. Tursunov I.Y., Nishonaliev U.N. Pedagogika kursi. –T.: "O'qituvchi", 1997. 214-219 b.
35. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. –T.: "O'zbekiston". 1988. -14 b.

36. Inomova M.O. Farzand nihol ota-ona boqbon. –T.: “O’qituvchi”, 1993. -132 b.
37. Uzoqov G’., G’oziev E. “Oila etikasi va psixologiyasi”. T., “O’qituvchi”, 1995., 47 bet.